

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi:

№ _____

« ____ » _____ 2019- yil

Samarqand davlat universiteti o'quv ishlari
bo'yicha prorektori prof. A.Soleyev

2019 yil “ ____ ” _____

Bilim sohasi:

100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi:

110000 – Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi:

5111100 – Musiqa ta'lim

BOLALAR MUSIQA ADABIYOTI
FANIDAN

O'QUV-USLUBIYMAJMUA
(Moodle tizimi rejasi asosida)

Tuzuvchi:

SamDU San'atshunoslik fakulteti, Musiqa ta'limi
kafedrasi o'qituvchisi, Z.A.Karimov

Kafedra mudiri:

P.f.f.d. Sh. Mustafayev

Fakultet dekani:

Dots. J.J. Kozimov

SAMARQAND – 2019

MUNDARIJA

1. SILLABUS (YO‘NALISHNING NAMUNAVIY VA ISHCHI O‘QUV REJASI, FANNING NAMUNAVIY VA ISHCHI O‘QUV DASTURI (tasdiqlangan variantini skaner shakllarini qo‘yish talab qilinadi)).....
2. O‘TILAYOTGAN FANNING ASOSIY NAZARIY MATERIALI (MA‘RUZALAR MATNI).....
3. GLOSSARIY
4. FOYDALANILGAN ADABIYOTLARNING ELEKTRON SHAKLI (disk shaklida ham qo‘yish mumkin)..
5. MAVZULAR BO‘YICHA TAQDIMOTLAR, MUSTAQIL TA‘LIM UCHUN MATERIALLAR (ILMIY MAQOLALARva BOSHQA MANBALAR).....
6. LABORATORIYA (AMALIY YOKI SEMINAR) MASHG‘ULOTLARI MATERIALLARI
7. QO‘SHIMCHA MATERIALLAR (VIDEOLAR, KEYS-STADILAR VA BOSHQALAR)....

Fanning o'quv uslubiy majmuasi samarqand davlat universiteti san'atshunoslik fakulteti kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019 yil "___" _____dagi "___"-sonli bayonnoma).

Fan dasturi samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

TUZUVCHILAR:

Karimov Z.A - Sam.DU .Sana'tshunoslik fakulteti musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

Qudraov.I - SamDU.Sana'tshunoslik fakulteti,
Musika ta'limi kafedrası dotsenti

Qiyomov.N - SamDU. Sana'tshunoslik fakulteti,
Musika ta'limi kafedrası dotsenti

Fanning dasturi samarqand davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2019 yil "___" _____dagi "___"-son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fakultet uslubiy kengash raisi:

dots. E.K.Jalilov

Musika ta'limi kafedrası mudiri

p.f.f.d Sh.N.Mustafojev

Fakultet dekani:

dots.J.J.Kozimov

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i:

p.f.f.d B.Aliqulov

MUNDARIJA

1. O'quv reja.....
2. Fanning o'quv dasturi
3. Fanning ishchi o'quv dasturi
4. Fanning sillabusi
5. Utiladigan mavzular yuzasidan asosiy nazariy manbalar.....
6. Taqdimotlar.....
7. Tarqatma materiallar.Mustaqil ta'lim uchun manbalar.....
8. Amaliy mashg'ulotlar uchun manbalar (topshiriqlar, keyslar,kurs ishlari,
loyihalar,semenar mahsg'ulotlari va h.k.).....
9. Labaratoriya mashg'ulotlari uchun manbalar.....
- 10.Glossariy.....
- 11.Foydalanilgan adabiyotlar.....

« BOLALAR MUSIQA ADABIYOTI » fanining

2019 o'quv yili uchun mo'ljallangan SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi									
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Samarqand davlat universiteti						Samarqand shahri universitet xiyoboni		
Kafedra:	Musiqia ta'limi								
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	5111100 – musiqiy ta'lim yo'nalishi								
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	Karimov Zohidjon Abduvaliyevich			Tel.raqami			e-mail:		
				+99897 926 07 60			KZUZBITTA. Gmail@com		
Dars vaqti va joyi:	1- bino , 3-07, 3-08 auditoriya			Kursning davomiyligi:			05.09-25.12.2019		
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	dushanba, payshanba va shanba kunlari 14.00 dan 18.00 gacha								
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari						Mustaqil ta'lim:		
	Ma'ruza:			Amaliyot					
	VII-sem		jami	VII-sem		jami			Jami
	16		16	20		20			36
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	“Musika tarixi”, “Cholg’u ijrochiligi va ansambl”, “Musika o’qitish metodikasi”, “An’anaviy va xalq ijrochiligi”, “Xor va xorshunoslik”, “Dirijyorlik” , “Vokal va zamonaviy musiqa”								
Fanning mazmuni									
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	Fanni o’qitishdan maqsad • Talabalarda musiqiy hodisalarga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash va ularni idrok etish qobiliyatni hosil qilish; • Talabalarning musiqiy dunyoqarashini, tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-yestetik didini to’g’ri yo’naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o’stirish; • Talabalarni musiqa madaniyati o’qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash. Fanning vazifalari – quyidagilar deb belgilab olindi: - Talabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunib yetish yo’lida maxsus bilimlar berish, musiqiy-texnik ko’nikmalarni singdirish; - Talabalarni kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va nazariy musiqashunoslikning asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqiy til tizimi va unda muhim o’rin yegallagan garmoniya haqida aniq tushunchalar berish;								

	- Talabalarni musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim musiqa yelementlari, musiqiy rivojlanish prinsiplari, shakldagi qismlar funksiyasi bilan tanishtirish, ularda turli xil musiqiy shakllarni tahlil qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirish; - Talabalarining musiqiy fikrlash, musiqiy yeshitish, sof intonasionalash qobiliyatini shakllantirish, musiqiy xotira, lad, ritm va uslub tuyg'usini tarbiyalash va rivojlantirish hamda orttirgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdir.
Talabalar uchun talablar	- o'qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish; - universitet ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish; - uyali telefonni dars davomida o'chirish; - berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish; - ko'chirmachilik (plagiat) qat'iyan man etiladi; - darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o'zlashtirilishi shart; - darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish; - talaba o'qituvchidan so'ng, dars xonasiga - mashg'ulotga kiritilmaydi; - talaba reyting ballidan norozi bo'lsa e'lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyasiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha

Fan mavzulari va unga ajratilgan saotlar taqsimoti:

I semestr

No	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy
1.	Bolalar musiqasi yuzaga kelishi.	2	4
2	Bolalar musiqasi yuzaga kelishining tarixiy omillarni tahlil etish.	2	4
3	O'zbek bolalar musiqa fol'klori.	2	2
4	O'zbek bolalar musiqa fol'kloridan ayrim asarlarni tahlil etish.	2	2
5	XX asr o'zbek bolalar musiqasi.	2	2
6	XX asr o'zbek bolalar va o'smirlar musiqasidan asarlarni tahlil etish.	2	2
7	XIX – XX asr boshlarida Yevropa bolalar musiqasi.	2	2
8	XIX – XX asr boshlarida Yevropa bolalar musiqasi asarlaridan tahlil etish.	2	2
Jami		16	20

Asosiy adabiyotlar:	1. Boshlag'ich rubob darsligi. Q. Usmonov. T. O'qituvchi – 1995 yil. 2. O'zbek xalq milliy musiqa taronalari. Toshkent – 1995 yil. 3. Rubob darsligi. X. Nurmatov. Toshkent. O'qituvchi 1993 yil. 4. X. Nurmatov – qashqar rubobi T. 2003 5. O'zbekiston Respublikasi madaniyati ishlari vazirligi – Rubob navolari T. 1993 y. 6. Sh. Rahimov – Dutor Toshkent. G'.G'ulom nashriyoti. 2005 y.
Qo'shimcha adabiyotlar:	7. X. Nurmatov qashqar rubobi taronalari T. G'.G'ulom nashriyoti 1989 8. X. Nurmatov «Rubob darsligi» o'qituvchi T. 1993 9. X. Nurmatov «O'zbek xalq musiqasi» O'qituvchi T. 1998 7. R. Xodjiev Dutorim sozim manim. O'zbekiston nashriyoti 2001 y. 8. Sh. Raximov. «Cholg'u ijrochiligi». «Dutor». «Fan» nashriyoti 2005 y 9 Boshlangich rubob darsligi. Q. Usmonov. T.: O'qituvchi – 1995 yil. 10. O'zbek xalq milliy musiqa taronalari. Toshkent – 1995 yil.

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI

“MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

“BOLALAR MUSIQA ADABIYOTI”

FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI

SAMARQAND 2019

1-mavzu: Bolalar musiqa adabiyoti fan sifatida

REJA:

1. Bolalar musiqa adabiyoti fanining maqsadi.
2. Bolalar musiqa adabiyoti kursining vazifalari.
3. Bolalar musiqa adabiyotining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
4. Bolalar musiqa adabiyoti fanining tuzilishi va mazmuni.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Bolalar musiqa adabiyoti fanining asosiy maqsadi va uni o'qitish zaruriyati. Fanning asosiy maqsadi va g'oyasi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bolalar musiqa adabiyoti fanining maqsadi nimadan iborat?
2. Bolalar musiqasining o'ziga xosligini qanday tushunasiz?
3. Bolalar musiqa adabiyoti qaysi fanlar bilan ko'proq bog'liq holda o'qitiladi?
4. Bolalar musiqa adabiyoti fanining vazifalari nimalardan iborat?
5. Bu fanning o'qitish asosan qaysi g'oya uchun xizmat qiladi?
6. Bolalar musiqa adabiyoti tuzilishi va mazmuni qanday?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. O'zbekiston XTV "Musiqaviy madaniyat" dasturi. –T.: 1999-yil
2. O'zbekiston XTV "Muzikal'naya kul'tura" dasturi. –T.: 2000-yil.
3. X.Nurmatov "Muzika v shkole". –T.: 1992-yil

1) Mustaqilligimiz sharoitida tariximizga, milliyligimizga, qadriyatlarimizni tiklash masalasiga, yosh avlod tarbiyasini yanada yaxshilash, ularni ilm-fanning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor etishga, lo'nda kilib aytganda har tomonlama etuk barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor va ahamiyat berila boshladi.

"Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamalakatimizda yashaydigan millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyati va an'alariga munosib bo'lishimizga erishish, yuksak fazilatli komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir"¹.

Shuni aytish lozimki, mustaqillik xalqimizning umuminsoniy, milliy-madaniy qadriyatlarini o'rganishga keng yo'l ochdi. Barcha fanlar qatori Bolalar musiqa adabiyoti fani ham endilikda faqatgina Evropa yoki Rus bolalar musiqasi emas, balki O'rta Osiyo, xususan, O'zbek bolalar musiqasi adabiyotini kengroq

1. I.A.Karimov. Milliy istiqlol g'oyasi – Asosiy tushuncha va tamoyillar.

tadqiq etishga, uning o'tmishi tarixi, bolalar folklor musiqa ijodiyoti, bolalar o'yinlarini, raqslarini hamda bolalar qo'shiqchiligi, sahna madaniyati kabi musiqiy janrlar tarixini to'la va kengroq ochib berishga ahamiyat berilmoqda. Albatta yurtimizning kelajak taqdiri yoshlar qo'lida ekan, bu masalaga e'tiborsiz qarab bo'lmaydi.

Har bir fanni zamon talabi darajasida aniq, ravon, tushunarli tarzda o'qitishi, tarbiya turlarining barchasini barabar yoshlarga berib borish komil inson tarbiyasi uchun nihoyatda zarurdir. O'z milliy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini teran anglagan, unda faxrlana oladigan kishi chinakkam xalqparvar, millatparvar sanaladi.

“... mana shu hayotda yashashimiz, tinch va osuda hayotimiz, bayramlarimiz, udumlarimiz, mehrliligimiz, folklorimiz, o'yinlarimizning barchasi ezgu va azaliy qadriyatdir”. I.A.Karimov.

Bolalar musiqa adabiyoti fanining mahsadi bo'lajak musiqiy ta'lim pedagog-murabbiylarini bolalar musiqa asarlari bilan yaqindan tanishtirish, ularni musiqiy asarlarni tahlil qilishga o'rgatish, bolalar musiqasining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni bu asarlarning kattalar musiqasiga o'xshashlik va farq qiluvchi xususiyatlarini, bolalar kompozitorlari hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, shuningdek, bolalar musiqa ijodiyoti janrlari, she'riy uslublari, ularga dirijyorlik qilishdagi o'ziga xosliklar, chet el bolalar musiqasi taraqqiyot jarayonlari, bolalar uchun ijod qilgan chet el va rus kompozitorlari, bolalar ijrosi uchun moslashtirilgan cholg'u sozlari hamda boshqa shu kabi bilimlar bilan tanishtirish va ularning bolalar musiqasini amalda cholg'u sozida chala olishi va kuylash olishi hamda o'rgata olishiga erishishdir.

2) Bolalar musiqa adabiyoti o'quv dasturi mutaxassislik fanlaridan hisoblanadi. Bu fanning o'quv dasturi va rejasiga kiritilishining boisi bo'lajak musiqiy ta'lim yo'nalishi pedagog-murabbiylarini bolalar olamiga olib kirish, ularni sevishtirish, e'zozlash, ularga mehr ko'zi bilan qarash, bolalarning kelajagimiz vorislari ekanligi, ular bilan to'g'ri va do'stona munosabat o'rnatish o'rgatish. Shuningdek, bo'lajak mutaxassis kadrlarning bolalar musiqasi to'g'risidagi bilim-ko'nikma va malakalarining boyishi, eng asosiysi ularni bolalar musiqa asarlarini tahlil qilishga bolalar yosh xususiyatlariga ko'ra repertuar tanlay olishga hamda tanlanadigan musiqiy repertuarni shaxsan o'zlari ijro eta olishlariga, bundan tashqari bolalar musiqiy asarlarini ijod qiluvchi (yaratuvchi) bastakor va kompozitorlar hayoti va faoliyati, ular yaratgan musiqiy va sahna asarlari to'g'risida bilimga ega qilish, bolalar cholg'u sozlari to'g'risida, turli mamlakat, turli xalqlardagi bolalar musiqalari rivojlanishi, bolalar musiqasi janrlari to'g'risida bilim berishdir.

Agar kengroq qarab chiqadigan bo'lsak, bu fanning vazifalarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

a) Barcha fanlar qatori bu fanning ham yangi-yangi dalillar, ma'luotlar, tadqiqotlar, tajribalar hisobiga boyib borishi ko'zda tutiladi;

b) Boshqa fanlar bilan muntazam bog'liqlikda va aloqada bo'lish, boshqa fanlar yutuqlari va bilimlaridan o'z yo'nalishi talablariga binoan foydalanish hamda o'z yo'nalishi bilimlari va erishgan yutuqlarini boshqa fanlarga targ'ib etish;

v) Bo'lajak musiqiy ta'lim yo'nalishi pedagog-murabbiylarini bolalar dunyosiga olib kirish, ularni bolalarni sevishga va ular bilan ishlashga o'rgatish;

g) Ularni bolalar musiqasining o'ziga xos xususiyati to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish, ya'ni bolalar musiqasi janrlari, tuzilishi, mazmuni, uslublari, she'riy matn tuzilishi turlari, milliyligi, bolalar cholg'u sozlari va musiqiy savodxonlik kabi bilimlar bilan tanishtirish;

d) Bolalar musiqasining paydo bo'lish tarixi, uning turli xalqlar va mamlakatlarda rivojlanishi, bastakor va kompozitorlari ijodi, cholg'u sozlari va musiqiy janrlari to'g'risida ma'lumot berish;

e) Ularda bolalar cholg'u kuylarini chalish, qo'shiqlarini chalish va kuylash, shuningdek bolalar musiqiy asarlariga dirijyorlik qilish kabi qobiliyatni shakllantirish;

yo) Bolalar musiqa adabiyoti fani eng avval shu soha va shu yo'nalish fanlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu fanlar qatoriga musiqa adabiyoti, musiqa tarixi, musiqa savodi (nazariyasi), vokal ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, dirijyorlik, solfedjio, musiqiy ta'lim metodikasi, musiqa asarlari tahlili, garmoniya, xorshunoslik va boshqa fanlarni kiritish mumkin. Bolalar musiqa adabiyoti fanning har bir mavzusi yuqorida ko'rsatib o'tilgan fanlar bilan bog'liq holda o'qitiladi.

Bundan tashqari bu fan pedagogika, psixologiya, anatomiya va fiziologiya, nutq madaniyati, adabiyot, tarix, matematika, fizika, biologiya, tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya va mehnat tarbiyasi fanlari bilan ham bog'liq bo'lib, o'z mavzularining mazmun va mohiyatiga ko'ra bu fanlarga tez-tez murojaat qiladi.

3) Bolalar musiqa adabiyoti fani ma'ruza va amaliy seminar mashg'ulotlari shaklida o'qitiladi. Uning ma'ruza qismida bolalar musiqasi paydo bo'lish tarixi, turli mamlakatlarda, xususan O'zbekistonda uning rivojlanishga jarayoni, bolalar musiqasini rivojlantirishga hissa ko'shgan bastakor va kompozitorlar, fanning o'kitish metodlari (pedagogik va axborot texnologiyalari), turli asrlarda uning rivojlanishi, bolalar musiqa janrlari, bolalar cholg'u sozlari, bolalar xorlari, operalari, drammalari kabi bilimlarni qamrab olsa, uning amaliy – seminar mashg'ulotlari bolalar musiqa asarlarini tahlil etish, ularni cholg'u sozlarida va ovozda amaliy ijro etish, bu asarlarga dirijyorlik qilish, cholg'u sozida chalish va yakka yoki ko'p ovozli holatda kuylashni o'rgatadi.

Fanning ma'ruza va amaliy – seminar mashg'ulotlari jarayonida o'rganilmay qolgan bilimlari mustaqil ta'lim shaklida, ya'ni topshiriqlar berish va uning bajarilishini nazorat qilish hamda baholash shaklida olib boriladi.

2-mavzu: Bolalar musiqasi umumiy musiqa san'atining asosiy bo'g'ini sifatida

REJA:

1. SHaxsning shakllanishida musiqa san'atining roli.
2. Bolalar musiqasi tushunchasi va yo'nalishlarini aniqlash.
3. Bolalar musiqasi janr va mazmuni.
4. Pedagog musiqiy repertuari va uning xilma-xilligi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Musiqa va uning tarbiyadagi roli. Bolalar musiqasi tushunchasi va yo'nalishlari. Pedagogik repertuar. Bolalar musiqasi janrlari.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bolalar shaxs sifatida shakllanishi va unda musiqa madaniyatining rolini izohlang?
2. Bolalar musiqasi qanday tuziladi va ular kattalar musiqasidan qanday farq qiladi?
3. Bolalar musiqasi yo'nalishlarini aniqlang?
4. Bolalar musiqasi qanday janrlarda bo'ladi?
5. Bolalar musiqasi mazmuniga qanday talablar qo'yiladi?
6. Pedagog musiqiy repertuarini qanday izohlaydi?
7. O'zbek musiqa madaniyatida bolalar musiqasining o'rnini qanday tushunasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.X.Yo'ldosheva. O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. –T.: O'qituvchi, 1985-yil.
2. H.Hamidov. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. –T.: O'qituvchi, 1996-yil.
3. D.B.Kobalevskiy. Pedagogicheskie razlishleniya. –M.: Pedagogika, 1986-god.
4. T.E.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi. –T.: O'qituvchi, 1981-yil.

1) O'sib kelayotgan yosh avlod ongiga, ularning ruhiyatiga, axloq-odobiga, dunyoqarashiga ta'sir etuvchi asosiy vositalardan biri musiqa san'atidir. U insonni jamiyatga va tabiatga to'g'ri insoniy munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Buning uchun musiqa san'atida imkoniyatlar mavjud. Bundan tashqari, u insonning axloqiy-estetik ruhda tarbiyalanishi vositasi ham hisoblanadi. U bola shaxsining shakllanishida, ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlari o'sishida, bolalar jamiyat va tabiat qonuniyatlari, ularning o'ziga xos yashash normalarini, ular bilan munosabat o'rnatishni o'rgata boradi. **Umuman olganda, musiqa san'ati bolaning shaxs sifatida har tomonlama kamol topishida benihoya katta ahamiyat kasb etib, ularni jaholatdan madaniyat sari etaklovchi qudratga ega.**

2) Bolalar ijrosi yoki kattalarning bolalar ijrosi uchun, ularning tinglashlari uchun moslashtirib yozgan va ijro etadigan musiqiy asarlariga bolalar musiqasi deb ataladi. Tarix va pedagogik amaliyotimizda musiqiy ta'lim va tarbiya ikki bir-biriga bog'liq bo'lgan yo'nalishda; maxsus musiqiy ta'lim va umumta'lim tipidagi

musiqiy ta'lim ko'rinishida shakllangan. Har ikkala yo'nalishning ham asosini bolalar musiqa ijodiyoti, bolalar va o'smirlar musiqasi tashkil etadi.

Musiqa san'ati va madaniyatining tashkiliy qismlaridan biri sanalgan bolalar musiqasi quyidagi manbalardan tashkil topgan:

a) U o'zining dastlabki zaxira manbasini umumbashar musiqa madaniyatidan oladi va davrlar taraqqiyot normalariga ko'ra takomillashib boradi;

b) Qadim davrlardan buyon musiqa tarbiya vositasi bo'lib kelgan va u tarbiyaviy ehtiyojlar natijasida boyib boradi. Bunga bolalar musiqiy folklori, allalar yoki allasimon yupatuvchi qo'shiqlar va boshqalar misol bo'la oladi.

CHunki, bunday qo'shiqlar qadimdan jamiyat va oila axloqiy manfaatlarini ko'zlab yaratib kelgan. Hind, Qadimgi SHarq, Xitoy va Qadimgi Grestiya tarixi manbalarida va folklor namunalarida bu o'z aksini yaqqol topgan. 19-asrga kelib esa musiqaning shu jumladan bolalar musiqasining o'rni faqatgina tarbiyaviy masala bilan cheklanmasdan, balki u bevosita ta'limning ham asosini tashkil eta boshladi.

Hozirgi davrda Evropa mamlakatlari va boshqa jahonning ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlarida musiqiy tarbiya va ta'limga nihoyatda e'tibor kuchlidir.

3) Maxsus pedagogik repertuar yaratish va bolalar hamda o'smirlar tinglashi lozim bo'lgan musiqiy asarlar yaratish zaruriyati bolalar professional musiqa ijodiyotining paydo bo'lishiga olib keladi. Ular esa bolalarning ijro madaniyatini, ijodiy yaratuvchanligini hamda musiqiy asarlarni tinglash, ulardan estetik zavq olish, shuningdek, ta'sirlanish, mazmunini tushunib etish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Musiqiy tarbiya jarayonining o'zi esa o'zlaridan oldin yashab o'tgan ajdodlarining musiqiy tarbiya borasida to'plagan tajribalarini, ularni yosh avlodga singdirish usul va metodlarini, bu boradagi an'ana va odatlarini saqlab qolgan holda ularni takomillashtira borishni, davom ettirishni nazarda tutadi.

Bolalar musiqasi janrlari esa quyidagilardan iborat: Qo'shiq, cholg'u pesalari, polifonik musiqa, sonata va kichik sonatalar (sonatino), cholg'u konstertlari, xorlar, syuitalar, kontatalar, musiqali dramatik asarlar, jumladan operalar, baletlar, musiqali spektakllar va musiqali filmlar, multfilmlar va boshqalardan iborat.

4) Musiqali pedagogik repertuar quyidagicha tashkil topadi: Bolalar musiqa maktablari repertuari, umumta'lim maktablari musiqa repertuari (bolalar bog'chasi musiqasi, kichik, o'rta va katta yoshdagi maktab o'quvchilari uchun repertuar), bolalar badiiy-havaskorlik musiqa repertuari.

SHuni aytish kerakki, bolalar musiqasi tushunchasi asosan, umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida ijro etiladigan musiqiy repertuar bilan ko'proq o'z ifodasini topadi, ya'ni bu o'quv dargohlarida turli avlod kompozitorlari va bastakorlari bolalar uchun yaratilgan musiqiy asarlar bilan bir vaqtda bolalarning musiqiy dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida, musiqa savodi, musiqiy asarlar tahlili, qo'shiq kuylash, cholg'u chalish, musiqa tinglash, musiqali ritmik harakatlar bajarish kabi ko'plab musiqiy bilimlar bilan bolalar tanishtiriladi. SHuningdek, ular bu darslarda kattalar musiqasi, masalan, o'zbek

mumtoz musiqasi, maqomlar, mahalliy ijro uslublari, cholg'u musiqalarini tinglashdilar va ular to'g'risidagi tushunchalarga ega bo'la boradilar.

SHuningdek, umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar musiqa tarixi to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda chet el musiqa madaniyati, jumladan Evropa kompozitorlari, Rus kompozitorlarining yozgan musiqiy asarlari, Akademik ijro uslublari vokal musiqasi, cholg'u musiqasi va dramatik sahna asarlari, jumladan ularning bolalar uchun yozilganlari bilan tanishadilar.

Asosiy pedagogik repertuarning dasturlashtirilganligi va bolalar yosh xususiyatiga ko'ra oddiydan murakkabga tomon rivojlantirilgan holda rejalashtirilganligidir.

3-mavzu: CHet el bolalar musiqasi tarixidan (17-18-asrlar)

REJA:

1. Bolalar musiqasi paydo bo'lishi va taraqqiy etish omillari.
2. Bolalar va o'smirlar professional musiqasi tashkil topishi.
3. Mashhur kompozitorlar pedagogik repertuari va ularning maktab dasturiga kiritilishi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Jahon bolalar musiqasi tarixi, Evropa kompozitorlarining bolalar uchun ijod etgan musiqiy asarlari. Bolalar professional musiqasining paydo bo'lishi. Pedagogik repertuarning ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bolalar musiqasining qadimiy manbalarini izohlang.
2. SHaxsning garmonik tarbiyasida qadim grek musiqasining roli qanday edi?
3. Nima uchun o'rta asr musiqachilar qo'shiqlari xalq pedagogikasi sanaladi?
4. Bolalar folklor musiqalari janrlari va mazmuni qanday bo'ladi?
5. Nima uchun 17-18-asr kompozitorlari bolalar professional musiqasiga asos soldi?
6. I.S.Bax ijodining badiiy va pedagogika ahamiyatini izohlang.
7. Kompozitorlar F.Kuperen, J.F.Ramo, J.B.Lyulli va Persel ijodining o'ziga xos qirralarini izohlang?
8. Vena klassiklari ijodiga ta'rif bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. CHet el musiqa adabiyoti. 1-tom. –Moskva, 1985-yil.
2. CHet el musiqa adabiyoti. 2-tom. –Moskva, 1985-yil.
3. Musiqaviy madaniyat dasturi. –T.: 2000-yil.
4. I.S.Bax. Kichik prelyudiya va fugalar, 15 ikki ovozli invenstiya, Anna Magdalena Bax nota daftari, 1-2-kitob, “Bolalar uchun xor va qo'shiqlar”.

1) Jahon musiqa madaniyati qadimdan og'izdan og'izga avlodlar osha folklor meros tarzida o'tib kelganligi bizga ma'lum. Xalq musiqa merosi har bir millat-elat tomonidan juda chiroyli ohang bezaklari bilan boyitilib, asrab-avaylab, avlodlarga qoldirilgan. U avlodlar osha takomillashib, kengayib, boyib borgan va yangi-yangi janrlar, musiqiy asarlar yaratila borishi evaziga taraqqiy etgan. Buni biz musiqaning paydo bo'lish davri, ya'ni ibtidoiy davrdagi sodda va oddiyligidan to hozirgi murakkab musiqiy asarlar tuzilishi, operalar, baletlar, sifonik va boshqa ko'p ovozli, ko'p qismli asarlar yaratilganligigacha bo'lgan farqdan bilishimiz mumkin.

2) Bizga ma'lumki, musiqiy asarlar qaysi davrda va qanday murakkablikda yaratilishidan qat'iy nazar insoniylikni, mehr-oqibatni, sevgini, shijoatni, haqiqatni ulug'lab kelgan. Har bir xalqning milliylikka yo'g'rilgan jonli va chiroyli tildagi musiqa ijodiyoti professional musiqa madaniyat paydo bo'lishining bosh omili hisoblanadi. Ular mehnat jarayonida, oilaviy hayot davomida va turli xil marosimlarda kuylab kelingan qo'shiqlardan tortib, kuylash, dramatik asarlar shaklida rivojlanib kelgan. Ular o'zlarining xalq turmush tarzini ifodalashdan tashqari, xalqning o'zini, shu jamladan o'sib kelayotgan yosh avlodni mehnatga rag'batlantirgan va ularni estetik hamda axloqiy tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Folklor hamma vaqt xalq pedagogikasining ta'sir etish vositasi, ya'ni quroli hisoblangan. Uning yordamida xalq udum va an'analari, axloqiy normalari, milliy urf-odatlar yosh avlodga singdirib kelingan. Uning yordamida yosh avlod ongiga tabiat va jamiyat atrof muhit, turmush tarzi, o'zaro munosabatlar to'g'risida badiiy estetik tasavvurlar shakllana borgan. Bolaning birinchi qadamlaridan boshlab urf-odat va an'analar, milliylik to'g'risidagi to'plangan pedagogik tajribalar, uning yordamida tushuntirila borgan. Bu esa, qo'shiq, raqs, o'yinlar, ertaklar va shu kabi folklor vositalari yordamida amalga oshirilgan.

Millati, diniy e'tiqodi va yashash joyidan qat'iy nazar dunyoning barcha xalqlarida bolaning birinchi eshitadigan qo'shig'i – ona allasidir. Alla mayin va kuychan ijro etilib, qaysi tilda bo'lmasin bola ruhiyatini tinchlantirish, unga orom bag'ishlash maqsadida ijro etiladi. Bundan tashqari unda onaning orzu-istaklari, ko'ngil rozilari va farzandiga bo'lgan mehru-muhabbati aks etadi. Aynan shu alla ohanglari va undagi so'zlar vositasida qilingan dil izhorlari bolada milliy ruhiyat, onasiga bo'lgan, shu orqali oilasiga va yurtiga bo'lgan mehr-muhabbatining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Dunyo xalqlarida allalar asosan ikki xil bo'ladi. Birinchisi melodik jihatdan juda ham sodda, so'zlari ham ravon va qisqa bo'lib, bunday allalarni kattalardan tashqari bolalar ham kuylaydilar. SHuni aytish kerakki, allalar faqatgina bolani uxlatish uchungina ijro etilmaydi, balki ularni avutish, yupatish, tinchlantirish kabi maqsadlarda ham ijro etiladi. Ikkinchisi melodik va so'z matni jihatidan murakkab bo'lib, uni faqat kattalar bolalar uchun ijro etadi. Qadimdan allalarning bola kelgusi taqdirini belgilashda roli katta deb hisoblab kelingan. Ba'zida esa bu o'z isbotini topgan.

Har bir xalq, har bir millat allasi o'z tilida, o'z milliy ohang yo'llarida ijro etiladi. SHuning uchun ham allaning bolada milliy ruh paydo qilish mo'jizasi bor.

O'zbek xalqida qadimdan bolalarning bahor vaqtida uyma-uy yurib, "boychechak" kuylash an'anasi mavjud bo'lgan. Bunda bir qishloq bir ovul yoki bir mahalla bolalari "Navro'z" bayrami arafasida to'planishib, uyma-uy boychechak qo'shig'ini kuylaganlar, uy egalari esa bolalarni hursand qilish maqsadida ularga eguliklar va boshqa narsalar hadya qilganlar. Huddi shunday taomil ramazon oyida, ro'zaning uchinchi kunida uyushtirilgan. Bolalar uyma-uy yurib yiqqan oziq-ovqatlari hisobiga bazm uyushtirganlar, narsalarni esa bo'lib olganlar. Bu ishlarni bolalar ichida saylangan jo'raboshi tartibga solgan. Bu an'analar va taomillar faqatgina o'zbek xalqiga emas, balki O'rta Osiyo xatto SHarq mamlakatlari xalqlariga ham xosdir. SHuni aytish kerakki, SHarq xalqlari o'rtasida qadimdan o'rnatib kelingan madaniyat aloqalar urf-odatlar va an'analardagi o'xshashlikka, bir biriga yaqinlikka sabab bo'lgan. Bundan qadimdan shakllanib kelgan bolalar folklori ham mustasno emas.

Dunyo xalqlarida bolalar musiqasining paydo bo'lish tarixi yuqorida aytib o'tganimizdek qadimiydir. Grek tarixchilarining bergan ma'lumotiga qaraganda qadim YUnonistonda taniqli bo'lgan qo'shiqchi va bastakor Pindar (er.av 522-442-yillar) bolalar uchun bir qancha qo'shiqlar bastalagan. Umuman greklar musiqasining inson ma'naviy kamolotida tutgan o'rnini yuqori baholaganlar. Grek allomasi Aristotel (er.av 4-asr) musiqasining inson tarbiyasi va ma'naviyatini shakllantirishdagi rolga juda yuqori baho berib maxsus ilmiy kitoblar yozgan va uning ta'lim-tarbiyaga joriy qilinishi zaruriyat ekanligi bu ish davlat miqyosida amalga oshirilishi zarurligini asoslab bergan.

O'rta asrlar bolalar musiqasi nemis shpilmanlari, franstuz janglyorlari, ingliz istarionlari, rus skomroxlari, o'zbek masxaraboz va qiziqchilari kabilarning ijodida va ijrosida o'z ifodasini topgan. SHunisi qiziqqi, qadimdan saqlanib qolgan bolalar musiqasi qaysi xalqqa tegishli ekanligiga qaramay huddi bir o'zak yoki bir asosga ega ekanligi, ularning nomlari, so'z ifodasi bir-biriga yaqin va bog'lanib ketgan hamda bolaning tabiat va atrof muhit to'g'risidagi ilk tasavvurlarini uyg'otishga qaratilgan. Bunga "Qushlar biz tomon uchib kelmoqda" nomli nemis, "Quyuncha, sen quyuncha", "Qurbaqalar" nomli rus, "Laylak keldi" nomli o'zbek bolalar qo'shiqlari misol bo'la oladi.

Folklori bilish va uning namunalarini o'rgatish yosh avlod ruhiyatini, ularning o'z xalqi tarixi, milliylik xususiyati to'g'risidagi tasavvurlarini boyitadi. Hozirgi davrda dunyoning barcha qit'alarida o'z xalqi folklori namunalarini o'rgatish, saqlab qolish va yangi ijod namunalar bilan boyitishga katta ahamiyat berilmoqda.

4-mavzu: Chet el bolalar musiqasi.

REJA:

1. Bolalar musiqasi paydo bo'lishi va taraqqiy etish omillari.
2. Bolalar va o'smirlar professional musiqasi tashkil topishi.
3. Mashhur kompozitorlar pedagogik repertuari va ularning maktab dasturiga kiritilishi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Jahon bolalar musiqasi tarixi, Evropa kompozitorlarining bolalar uchun ijod etgan musiqiy asarlari. Bolalar professional musiqasining paydo bo'lishi. Pedagogik repertuarining ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bolalar musiqasining qadimiy manbalarini izohlang.
2. SHaxsning garmonik tarbiyasida qadim grek musiqasining roli qanday edi?
3. Nima uchun o'rta asr musiqachilar qo'shiqlari xalq pedagogikasi sanaladi?
4. Bolalar folklor musiqalari janrlari va mazmuni qanday bo'ladi?
5. Nima uchun 17-18-asr kompozitorlari bolalar professional musiqasiga asos soldi?
6. I.S.Bax ijodining badiiy va pedagogika ahamiyatini izohlang.
7. Kompozitorlar F.Kuperen, J.F.Ramo, J.B.Lyulli va Persel ijodining o'ziga xos qirralarini izohlang?
8. Vena klassiklari ijodiga ta'rif bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. CHet el musiqa adabiyoti. 1-tom. –Moskva, 1985-yil.
2. CHet el musiqa adabiyoti. 2-tom. –Moskva, 1985-yil.
3. Musiqaviy madaniyat dasturi. –T.: 2000-yil.
4. I.S.Bax. Kichik prelyudiya va fugalar, 15 ikki ovozli invenstiya, Anna Magdalina Bax nota daftari, 1-2-kitob, “Bolalar uchun xor va qo'shiqlar”.

Bolalar musiqasining taraqqiyoti davrlarida ma'rifat davri (17-18-asrlar) asosiy o'rinlarda turadi. Chunki, bu davrda rus musiqa madaniyatining, undagi klassik musiqaning paydo bo'lishiga poydevor qo'yildi. Buning bosh sababi esa mamlakatni boshqaruv tizimining takomillashuvi edi, ya'ni bu davrga kelib Rossiyada juda katta hududni o'z ichiga olgan imperiya tashkil bo'ldi. Endigi vazifa mamlakat aholisini shu imperiya fuqarosi etib tarbiyalash, ya'ni mamlakat madaniy darajasini yuqori ko'tarish edi. Evropa mamlakatlari bilan o'rnatilgan madaniy aloqalar mamlakatda ta'lim tizimi, maktablar va undagi yosh avlodga ta'lim berish masalasining yo'lga qo'yilishiga sabab bo'ldi. Mamlakatda o'tkazilgan bunday islohatlar o'z-o'zidan musiqa san'atiga, ta'limda ham musiqiy ta'lim uchun o'rin belgilanishiga olib keldi.

Dunyo bo'ylab qanot yozgan taraqqiyotning ma'rifat bosqichi o'z navbatida musiqa madaniyati taraqqiyotiga ham keng yo'l ochib berdi. Nota yozuvi yo'lga

qo'yildi va bu yirik-yirik musiqiy asarlar yozilishiga, bunday asarlarni yozuvchi mashhur Gendal, Bax, Vena klassiklari Gaydn, Mostart, Betxoven kabi kompozitorlarning etishib chiqishiga sabab bo'ldi. Etishib chiqqan bunday kompozitorlar bolalarning maktabda va uyda musiqa bilan mashg'ul bo'lishi uchun xalq musiqa merosidan foydalangan holda turli janrlarda musiqa asarlari yarata boshladilar, bu esa ularning pedagogik repertuari edi.

Bu boradagi buyuk nemis kompozitori I.S.Bax (1685-1750) ning bolalar uchun yaratgan "Kichik prelyudiya va fugalar", invenstiyalar va simfoniyalari, "Anna Magdalena Baxning nota daftari", kichik pesalar, raqslari, xotini va bolalari uchun yozgan kichik ariyalari jahon yoshlarining musiqa ijrochiligida yuqori natijalarga erishish yo'lida zinapoya roilini bajardi.

Fortepiano cholg'usini o'rganuvchilar kichik yoshdan boshlab "Valinka", menuet, marsh kabi I.S.Baxning cholg'u asarlarini, qo'shiq o'rganuvchilar esa "Bahor", "Qish", "Daryo sohilidagi eski uy" kabi qo'shiqlarini o'rganishdan boshlaydilar.

Bundan tashqari I.S.Baxning polifonik asarlari yosh musiqa ixlosmandlarini tovushlar vositasida badiiy obrazli fikrlashga, musiqaning sehrli sadolari qarida yashirinib yotgan g'oya va fikrlarni anglab etishga o'rgatish qudratiga egadir.

Bu borada I.s.Baxning 1722-yilda yozgan "Anna Magdalena Baxning nota daftari" nomli birinchi kitobi (bu kitob asosan franstuz syuitalaridan tashkil topgan bo'lib, Kyoten shahrida yozilgan), 1725-yilda yozgan (Leypstig shahri) shu nomli ikkinchi kitobi diqqatga sazovordir.

Uning birinchi kitobiga olti franstuz va olti ingiliz syuitasi kiritilgan bo'lib, o'rganuvchilar uchun qulay, turli murakkablikda yozilgan. Syuita so'zi franstuz tilida qator, pog'ona, zanjir kabi ma'nolarni anglatib, syuitalar bir-biriga bog'langan ko'p qismli asarlardan tashkil topadi. Franstuz syuitalariga franstuz xalqi milliy musiqalari ruhi sindirilgan bo'lib, ular franstuz kompozitorlari Kuperen, Ramo kabilarning yaratgan sarlariga yaqin turadi. Xuddi shunday ingiliz syuitalari ham ingiliz xalqi milliy musiqa ijodiyoti ruhida yozilgandir.

Syuitalar asosan 4 xil: almmanda, kuranta, sarabanda va jiga nomli raqslardan tashkil topadi va ular oraliqlariga menuet, gavot va burre nomli pesalar kiritiladi. Syuitalar asosan xor, solest, orkestr va raqs uchun yoziladi. Baxning buyuk xizmati shundaki, u erik hajmli musiqa asarlarini yozishda o'z davrining peshqadami bo'ldi va Evropa, xususan nemis xalqi musiqa madaniyatini yuqori pog'onaga olib chiqdi. Bu borada u o'zidan keyingi yashab o'tgan Evropa kompozitorlarining ustози sanaladi. Uning yozgan ko'p qismli asarlari bir xil xarakterda bo'lmasdan, balki bir-biriga qarama-qarshi ruhdagi musiqiy asarlar jamlamasidan tashkil topar edi. Buni biz keyingi avlod kompozitorlarining ijodida kuzatishimiz mumkin. CHunki bunday xarakterda yaratilgan musiqiy asarlar tinglovchida turlicha kayfiyatlar hosil qilib, boy taassurot uyg'otadi.

Buyuk nemis kompozitori Iogan Sebastya Baxning boy pedagogik repertuari sharofati bilan uning o'g'illari Vigelm, Frideman, Filip Emmonuellar o'z davrining mashhur musiqachilari bo'lib etishdilar. Uning musiqa asarlari jahon musiqa xazinasidan salmoqli o'rin egallaydi.

17-18-asr Evropa kompozitorlari ichida bolalar va o'smirlar uchun Baxdan so'ng eng ko'p ijod qilgan fransuz kompozitori F.Kuperen (1668-1733) hisoblanadi. Uning yozgan asarlari asosan klavirin cholg'usi uchun bo'lib, ko'proq hazil va yumor ruhi bilan sug'orilgandir. Bundan tashqari fransuz kompozitorlari J.F.Ramo (1683-1764), T.Persel (1658-1695), J.B.Lyulli (1633-1687) lar ham o'z ijodlari va yaratgan pedagogik repertuarlar bilan o'z davrida mashhur bo'ldilar.

Ularning ichida J.B.Lyulli ilk fransuz opera san'atining asoschisi hisoblanadi hamda Evropa mashhur re-minor gavotining muallifidir. Gavot-fransuz raqs musiqasi bo'lib, xalq musiqasi ijodi asosida yozilganligi uchun u xalqchil bo'lib, sevib tinglanar va raqsga tushilar edi. Bolalar musiqasi repertuari yaratishda biz yuqorida sanab o'tgan kompozitorlardan keyingi avlod ichida eng salmoqli ijod qilgan, Vena klassigi unvoni sohiblari bo'lmish, kompozitorlar I.Gaydn, V.A.Mostart va Lyudvig Van Betxovenlar bo'ldi.

Kompozitor I.Gaydn (1732-1809) turli janrlarda salmoqli ijod qilib, o'zidan 24 opera, 100 dan ortiq simfoniya, ko'p sonli kamer asarlar, konstert (har xil cholg'ular uchun) lar, rondo, variatsiya, sonatalar va vokal asarlar yozib qoldirdi.

Uning yozgan ko'plab sonata, variatsiya, rondo, cholg'u sozlari uchun konstertlari pedagogik repertuar bo'lib, turli murakkablikda va o'rganuvchilar uchun qulaydir. Bundan tashqari uchun "Destkaya simfoniya" (bolalar simfoniyasi) asari ham mashhur. Kompozitor V.A.Mostart (1756-1791) jahon musiqasi madaniyat cho'qqisidan joy olgan bu kompozitor o'zining qisqa umrida eng ko'p ijod qildi. Jahon kompozitorlari unga tan berdilar va undan o'rgandilar. Uning ijodi chuqur mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Uning yozgan ko'plab sonata, variatsiya, rondo, pesa, menuet va boshqa asarlari musiqadan tahsil oluvchilar uchun pedagogik repertuar sanaladi. Mana 200 yildan ortiq vaqt davomida uning asarlari o'quvchilar tomonidan sevib o'rganilmoqda.

Kompozitor L.V.Betxoven (1770-1827) buyuk nemis kompozitori bo'lib, uning ijodi ko'proq qahramonlik ruhida yozilgan. Bunga uning 18-asr fransuz revalyustiyasi davrida yashaganligi va ta'siri bo'lgan deyishimiz mumkin. Uning ijodi keng va rang-barang bo'lib, falsafiy fikrlarga boydir.

TOPSHIRIQLAR:

1. Biror kompozitorning bolalar repertuaridan bir asari to'g'risida qisqacha annatsiya yozing.
2. Biror kompozitorning hayoti va ijodi to'g'risida (ixtiyoriy) kichik, o'rta va katta maktab yoshidagi bolalar uchun suxbat yoki hikoya tayyorlang.
3. Bolalar folklor musiqasi asarlaridan birini pedagogik va metodik jihatdan tahlil qiling (yozma ravishda).

REJA:

1. 19-20-asr kompozitorlari bolalar va o'smirlar uchun yozgan musiqalarining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Nemis kompozitorlarining bolalar uchun ijodi:
 - a) Robert SHuman.
 - b) Iogan Brams.
3. Romantik kompozitorlar ijodi maktab dasturida:
 - a) Fridrek SHopen.
 - b) Frans SHubert.
4. Kompozitor Jorj Bizening bolalar uchun ijodi.
5. Eduard Grig asarlari maktab dasturida.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

19-20-asr Evropa musiqa madaniyati va uning dunyo bo'ylab yoyilishi. Evropada bu davr bolalar musiqa repertuari. Kompozitorlar ijodi bilan tanishuv.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. 19-20-asr bolalar musiqaning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating?
2. R.SHuman ijodini ta'riflang, uning bolalar uchun yozgan asarlari va pedagogik-ma'rifiy faoliyatini baholang.
3. I.Brams bolalar uchun ijodi asosiy qirralarini ta'riflang.
4. Romantik kompozitorlar F.SHopen va F.SHubert asarlari nima sababdan maktab dasturiga kiritilgan?
5. Franstuz kompozitori J.Bizening bolalar uchun ijodi va ularning maktab repertuariga kiritilishi.
6. Noveg kompozitori E.Grig ijodidagi bolalarni tarbiyalashga yo'g'rilgan qirralarni ko'rsating.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.SHuman. Soldat marshi, Dadil yo'lovchi, Quvnoq dehqon, Qor bobo, Birinchi yo'qotish, SHaxzoda va boshqa asarlar.
2. Avstarliya va Germaniya musiqasi (19-asr). –M.: 1990-yil.
3. CHet el musiqa adabiyoti. 3-tom. –M.: 1988-yil.
4. R.SHuman. YOshlar uchun albom. –M.: 1986-yil.
5. E.Grig. Lirik pesalar. –M.: 1989-yil.
6. F.SHopen. Prelyudiyalar, Mazurkalar. –Varshava.: 1972-yil.
7. F.SHubert. Qo'shiq va romanslar (to'plam). –M.: 1982-yil.

1) 19-20-asr kompozitorlarining bolalar va o'smirlar uchun yozgan musiqiy asarlari ko'proq lirik xarakterdadir. Bu asarlarning xarakterli jihatlari; haqiqatlik, obrazlilik, dasturlilik, tasvir elementlari, yozilish shaklining oddiy va aniqligi, musiqiyliigi, folklorga tayanilishi, kuychanligi, raqs va marsh harakatlariga qulayligida ko'rinadi. Xalq ertaklari, afsona va rivoyatlari, fantastik obrazlar, tabiat, hayotiy xodisalar, bolalik dunyosi – oila, uy, o'yin va boshqa mashg'ulotlar kompozitorlar asarlarida aks ettiriladi.

2) Evropa mamlakatlari ichida kompozitorlik ijodiyoti, ayniqsa bolalar repertuari yaratilishi bo'yicha nemis kompozitorlari etakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Buyuk nemis kompozitori Robert Schuman (1810-1856) romantik kompozitor bo'lib, uning yozgan musiqiy asarlari inson qalbidan chuqur joy olishi, tinglovchida atrof-muhitda sodir bo'ladigan mo'jizalardan hayratlanish kabi kayfiyat uyg'otadi.

3) U mashhur pianinachi, dirijyor va pedagog sifatida ko'p qirrali, vazmin va bosiq bo'lgan edi. U ko'p janrlarda ijod qilgan bo'lib, simfoniyalar, xor musiqalari, operalar, romans va qo'shiqlar va fortepiano musiqalari yaratgan. U bolalarni nihoyatda sevar va ular uchun ko'plab asarlar yaratdi. Uning "Yoshlar uchun albom", "Bolalar sahnasi", "Bolalar uchun qo'shiqlar albomi" kabi to'plam asarlari bolalar dunyosining sirini ochib, ularning quvonchi, alomini hamda haqiqiy hayot ertak obrazlari fe'l-atvorini ifoda etadi.

Robert Schuman faqatgina bolalar pedagogik repertuari yaratibgina qolmasdan, balki Leyptsig shahrida o'zi nashr qilgan "Yangi musiqiy jurnal" sahifalarida ham bolalar repertuari uchun asarlar nashr etdi. Uning "Musiqachilar uchun hayotiy qoidalar" ruknidagi maqola va musiqiy asarlari buning dalili bo'laoladi. Keyinchalik jurnalda "Hayot qoidalari", "Musika va musiqachilar to'g'risida maqolalar to'plami" kabi maqolalari orqali u bo'lajak musiqachilarga bolalikdan qilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida qimmatli maslahatlar va tavsiyalar bergan.

4) 19-asr ikkinchi yarimi bolalar uchun ko'p ijod qilgan ikkinchi nemis kompozitori Iogannes Bramsdir (1833-1897). U o'z ijodiy faoliyatida nemis, venger, slavak qigan folklor musiqalarini qayta ishlash orqali yirik to'plam yig'di va nashr qildi. Bu to'plam "Xalq bolalar qo'shiqlari" deb nomlandi va bolalar xori repertuaridan doimiy va mustahkam joy oldi. Maktab o'quvchilari musiqa madaniyati darslarida uning mashhur Vengercha raqsi bilan tanishadilar.

5) 19-asr kompozitorlari bolalar uchun ijod qilganlar orasida mashhur frantsuz kompozitori Jorj Bizet (1838-1875) ham bo'lib, uning "Bolalar o'yini" nomli fortepiano dueti bolalar ijrosi uchun yozilgan o'n ikki pesadan tashkil topgan. Bundan tashqari uning mashhur "Karmen" operasidagi bolalar xori uchun yozilgan asari bolalar xor jamoalari repertuaridan doimiy o'rin olgan.

6) Shunday ijodkorlardan yana biri norveg kompozitori Edvard Grieg (1843-1907) bo'lib, u norveg xalq klassik musiqasining asoschisi hisoblanadi va Norvegiya musiqa madaniyatini rivojlanib ketgan Evropa musiqa madaniyati darajasiga ko'tardi. Uning yaratgan asarlari o'sha xalqchil bo'lib, bu asarlarni kattalar qatori bolalar ham sevib tinglaydilar va o'rganadilar. Uning asarlari norveg xalqi hayoti, o'y-fikrlari, orzu-umidlari, qayg'u va quvonchlari, barcha-barchasini o'zida mujassam etgan bo'lib, tinglovchini xalq hayotiga nihoyatda yaqinlashtiradi.

Uning asarlari bevosita bolalar uchun yozilmagan bo'lsa-da, asarlardagi milliy ruh, g'oya va obrazlar yorqinligi kattalar qatori bolalarni ham o'ziga tortadi. E.Griegning "Lirik pesalar" (66 pesadan iborat) asari fortepiano uchun yozilgan bo'lib, uni "Musika kundaligi" deb atash mumkin. Bu asarlarni dunyo musiqa

ixlosmandlari qatorida bolalar ham sevib tinglaydilar va o'rganadilar. SHuning uchun ular musiqa maktablari pedagogik repertuaridan mustahkam joy olgan. Uning "Gnomlar hokimiyati", "Troxougenda to'y marshi", "Kichkina qizcha", nomli pesalari, Per Gyuit syuitasi, "Bolalar qo'shig'i", "Quyosh botishi" romanslari, sonatalari musiqa maktablarida sevib o'rganiladi.

6-mavzu: XIX-XX-asr rus kompozitorlari ijodida bolalar musiqasi

REJA:

1. 19-asr ikkinchi yarimida rus kompozitorlarining bolalar uchun yaratgan asarlari.
2. Kompozitor P.I.CHaykovskiyning bolalar uchun ijodi va uning badiiy-estetik hamda pedagogik ahamiyati.
3. Kompozitor M.P.Musorgskiyning bolalar uchun ijodi va uning ahamiyati.
4. Rus kompozitorlarining fantastik ertak mavzusidagi yirik musiqali sahna asarlari hamda simfonik asarlari.
5. 19-20-asr rus bolalar musiqasining o'ziga xos xususiyatlari.
6. Rus kompozitorlari ijodi maktab repertuarida.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Rus klassik musiqasining va rus bolalar musiqasining paydo bo'lishi. Rus kompozitorlarining bolalar uchun yozgan musiqiy sahna asarlari (operalar, musiqali ertak spektakllar). Bolalar xor repertuari.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. 19-20-asr rus kompozitorlari bolalar ijodiyotining qanday xarakterli qirralari mavjud?
2. 19-asr rus kompozitorlari ijodida qaysi janrlar ustuvor edi?
3. P.I.CHaykovskiy asarlarining badiiy-estetik qimmatini nimada?
4. M.P.Musorgskiy asarlari badiiy qiymatini izohlang?
5. Rimskiy-Karsakovning badiiy-ertak mavzusidagi musiqiy asarlari qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.O.Kandinskiy. Rus musiqa tarixi. –M.: 1990-yil.
2. E.I.Novinka. M.Glinka to'g'risida kichik novest. –M.: 1987-yil.
3. P.L.Kalinina. P.I.CHaykovskiy. –M.: 1988-yil.
4. M.P.Musorgskiy. Bolalar uchun xor va qo'shiqlar. –M.: 1989-yil.
5. P.I.CHaykovskiy. Bolalar albomi. –M.: 1983-yil.
6. Dastur. Musiqa madaniyati. –T.: 1999-yil.

1) Bizning davrimizgacha saqlanib qolgan yozma manbalarning guvohlik berishicha, 19-asr ikkinchi yarimida faqatgina bolalar musiqasi yaratilib qolmasdan balki, u rivojlangan va boyib borgan. Bolalar musiqiy asarlarining ilk to'plamlari,

masalan, M.A.Mamanisovaning “Bolalar qo’shiqlari va rus kichik rossiya ohanglari” va o’rganuvchilar uchun fortepiano pesalari hamda asr oxirlarida kompozitorlar tomonidan yaratilgan bolalar operalari bolalar musiqasining repertuar sifatida boyib borishdan tashqari takomillashib, murakkablashib borganligini ko’rsatadi.

I.A.Krilovning mashhur masallari Bryanskiyning “Mushuk, echki va qo’y”, “Musiqachilar” (1888-y) operalari, Ukrain kompozitori N.V.Lisenko (1842-1912) ning “Koza-tereza” (1888-y), “Pan Kostkiy” (1892-y), “Zima i Vesna ili Snejnaya krasavista” (Qish va bahor yoki qor malikasi. 1892-y) operalarining yaratilishiga asos bo’ldi.

“Qudratli to’da” ijodiy uyushmasi a’zosi ST.A.Kyui ham bolalar uchun salmoqli ijod qilgan kompozitorlardan biri sanaladi. U umrining so’nggi yillarida bolalar uchun 13 ta xor (bolalar ovozi va fortepiano uchun), to’rt opera, “Snejniy bagatir” (Qor polvon. 1913-y), “Krasnaya shapochka” (Qizil shapkacha. 1911-y), “Kot v sapagax” (Etik kiygan mushukcha. 1913-y), “Ivanushka durachok” (Telba Ivan), “Ivan-bagatir” (Ivan botir. 1913-y) operalarini ijod qildi. Opera qahramonlari obrazlari tavsifini yaqqol va ifodali tarzda ochib bergan musiqiy asarlar bolalar klassik musiqasining yaqqol namunasi bo’lib qoldi.

Bolalar uchun ijod qilganlar orasida A.T.Grechaninov ham bo’lib, uning uch operasi; “YOlochkin son” (1911-y), “Teremok” (1912-y), “Kot, petux i lisa” (1924-y), bundan tashqari Peterburg konservatoriyasini A.K.Lyudov sinfida bitirgan. B.V.Asaf’evning “Zolushka” (1906-y) va “Snejnaya koroleva” (1907-y) operalari, shuningdek, V.I.Rebikov (1866-1920) ning “YOlka” (1900-y), “Skazka o prinstesse i Karole-lyagushke” (1908-y) operalari 19-20-asr bolalar klassik musiqasi xazinasidan jyo oldi.

2) Buyuk rus kompozitori Pyotr Il’ich CHaykovskiy (1840-1893) rus musiqa madaniyatiga salmoqli hissa qo’shish bilan birga bolalar musiqasi bo’yicha ham asarlar ijod qilgan. Uning “Bolalar albomi” asari 24 pesadan iborat. P.I.CHaykovskiyning kompozitor hamda pedagog sifatida bolalar dunyosiga chuqur kirib borishi, ularning ruhiy olamini, shakllanib kelayotgan insoniy tuyg’ularini badiiy-musiqiy obrazlar orqali yorqin ifodalab bera olish qobiliyatiga qoyil qolmasdan imkon yo’q. Bu to’plamdagi “Ona”, “Qo’g’irchoqlar dardi”, “Otda o’yin” kabi pesalar nomlariyoq kompozitorning bolalarni sevishi, ularning sodda qalbi va oddiy va beg’araz ruhiy olami to’g’risida yorqin taassurot uyg’otadi. Undagi “Qadimiy franstuzcha qo’shiq”, “Italyancha qo’shiq”, “Nemischa qo’shiq” nomli pesalar va asarlar bolalarda boynalminal tarbiya shakllanishiga xizmat qiladi. U o’z musiqiy asarlari orqali bolalarni hiyotning to’g’ri yo’l topish zaruriyati bilan tanishtirib boradi. Uning “Qo’g’irchoqlar dardi”, “Qo’g’irchoqlar motami”, “YAngi qo’g’irchoq” asarlari mana shunday asarlar jumlasiga kiradi.

3) Bolalar musiqasi borasida salmoqli ijod qilgan rus kompozitorlaridan yana biri Modem Petrovich Musorgskiy (1839-1881) dir. Uning o’z nevaralari Tanya va Gogo Musorgskiylarga atalb yozgan “Bolalar uchun” nomli vokal-qo’shiqlar to’plami bolalarni sevishdan va ularning psixologik olamini chuqur

anglashidan darak beradi. Mana shu xususiyati bilan bu asar opera va simfoniylar kabi yuqori saviyada turadi.

Bundan tashqari uning “Kartinki s vystavki” (Ko’rgazmali sur’at) nomli pesalar to’plami ham kundalik turmush tashvishlarini aks ettiradi. Masalan, ushbu to’plamdagi “Limoj Rinok” (Limoj-Franstiyadagi uncha katta bo’lmagan shahar) pesasi Limoj bozoridagi shovqin-suron va bir-biri bilan tortishib qolgan ayollar obrazini o’sha mahorat bilan kulgili tarzda musiqa orqali ifodalab bergan va hokazo.

4) Ertak, rivoyat, afsona, doston va asotirlarda ijodiy va salbiy qahramonlar obrazlari hayotda uchrashi mumkin bo’lgan voqea-xodisalarga insoniy to’g’ri munosabat, undagi salbiy obrazlar qilmishlariga nisbatan nafrat va ijobiy obrazlarga xayrihoxlik kabi hissiyotni bolalikdan tarbiyalab borishga qaratilgan. Ayniqsa, bu qahramonlar qilmishlari, voqea va xodisalar jarayonining burttirilishi, mubolag’a qilinishi bolalik hissiyotlarini junbushga keltiradi hamda bolalarni qiziqtiradi, voqealar rivoji tomon etaklaydi. Undagi yovuzlik ustidan mehr-oqibatning, rahm-shafqatning ustuvorligi bolalar tarbiyasida muhimdir.

Bunday voqea vaxodisalar rus kompozitorlari yaratgan ko’plab musiqali sahna asarlarida o’z aksini topgan. Masalan, Rus klassik musiqasi asoschisi M.I.Glinkaning “Ruslan va Lyumila”, P.I.Chaykovskiyning “Oqqush ko’li”, “Uyqudagi go’zal”, “SHelkunchik”, N.A.rimskiy-Korsakovning “Qor qiz”, “Sadko”, “Sulton haqida ertak”, “Oltin xo’roz” kabi operalari, baletlari, rus xalq qo’shiqlaridan olib yaratilgan “Qushlar raqsi”, “Baland-balandlarga” kabi xor asarlari bunga misol bo’laoladi.

Bundan tashqari A.K.Lyudovning “Sehrli ko’l”, “YAga momo”, “Kikimora” kabi simfonik ertak mavzusidagi asarlari, Rimskiy-Korsakovning “SHaxrizoda”, “Sindbad sarguzashti”, “SHaxzoda Kaeender to’g’risida afsona”, “SHaxzoda va Malika”, “Bog’dodda bayram” kabi ko’p qismli simfonik syuitalari bolalar uchun yozilgan yuqori saviyali asarlardir.

Rimskiy-Korsakovning “SHaxrizoda” asari tabiat xodisalari ezgulik bilan yovuzlik o’rtasidagi kurash, insonning yovuz kuchlarga qarshi kurashi, go’zallik va sevgini sharqona ohanglarda tarannum etishi bilan, ayniqsa unda Kavkaz va O’rta Osiyo xalqlari musiqiy merosimdan keng foydalanganligi bilan qimmatlidir.

5) 19-20-asr rus kompozitorlarining bolalar uchun yozgan musiqiy asarlari, o’zining xilma-xil janrlarda ekanligi (operalar, baletlar, xorlar, kamer musiqasi, vokal musiqasi, yakka cholg’u pesalari, ansambllar) o’zida boy badiiy obrazlarni mujassam etganligi (ko’p janrlilik, ko’rgazmalilik, hayotiy afsonaviy obrazlar, bolalar hayoti tasviri) bilan xarakterlanadi. YA’ni ular ijod qilish jarayonida qadim rus folklor ijodiyotiga hamda boshqa xalqlar musiqa merosiga tayanganlar.

6) Rus kompozitorlari ijodi to’liq maktab repertuariga kiritilgan bo’lib, bu asarlar, bolalar dunyoqarashining kengayishi, ijro mahoratlarining oshib borishi hamda ularning ezgulik sari, qadam tashlashlari uchun zarur bo’lgan pedagogik repertuardir.

7-mavzu: XX-asr bolalar musiqasi

REJA:

1. Franstuz kompozitorlari bolalar uchun:
a) K.Debyussi; b) M.Rovelya ijodi.
2. Venger kompozitorlari bolalar uchun:
a) B.Bartok; b) Z.Koday ijodi.
3. Nemis kompozitorlari bolalar uchun:
a) P.Xindemit; b) K.Orfa ijodi.
4. Ingliz kompozitorlari bolalar uchun:
a) B.Britten ijodi.
Braziliya V.Lobos ijodi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

XX-asr Evropa va Amerika kompozitorlarining bolalar uchun yozgan musiqiy asarlari. G'arb bolalar musiqasining XX-asrdagi taraqqiyoti. Bolalar musiqasi ta'lim tizimidagi o'rnining va ahamiyatining oshib borishi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. XX-asr G'arb kompozitorlarining bolalar uchun musiqa ijodi o'ziga xos tomonlarini izohlang?
2. XX-asr G'arb kompozitorlari dramatik sahna asarlari va ularning bolalar badiiy-estetik tarbiyasidagi roli.
3. Venger kompozitorlari bolalar uchun ijodini ta'riflang.
4. Nemis kompozitorlari ijodini ta'riflang.
5. Ingliz kompozitorlari ijodi.
6. Braziliya kompozitorlari ijodi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. CHet el musiqasi XX-asr. –M.: 1986-yil.
2. CHet el musiqasi tarixi 19-asr. 5-tom. –M.: 1988-yil.
3. D.B.Kobolevskiy. Pedagogik tafakkur. –M.: 1986-yil.
4. O.Leonteva. Kore Orf. –M.: 1984-yil.
5. I.CH.Martinov. Zoltan Kadayya. –M.: 1983-yil.

XX-asr kompozitorlari bolalar musiqasi taraqqiyotini yana bir pog'ona yuqori ko'tardilar. Ayniqsa, ularning bolalar tinglashi va ijro etishi uchun yaratgan asarlari umumta'lim va maxsus musiqa maktablarida taxsil olayotgan bolalarning musiqiy va badiiy-estetik madaniyatini oshirishdagi ahamiyati yanada ortib boradi.

1) Ikki buyuk franstuz kompozitorlari Debyussi va Ravelya 19-asr oxiri va XX-asr franstuz bolalar musiqa ijodiyotida yorqin iz qoldirdilar. Ayniqsa, ularning asarlari tinglovchida kuchli taassurotlar uyg'otishi, chuqur va mazmunli drammatizmi bilan diqqatga sazovordir. Ular franstuz impressionizmi asoschilari bo'lib qoldilar.

Klod Debyussi (1862-1918-y) ijodiy uslubi dunyo musiqa ixlosmandlarida katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa uning (1906-1908-yillarda yozgan) "Bolalar burchagi" nomli fortepiano syuitasi o'z qiziga bag'ishlangan bo'lib, bu asarda

kompozitor dunyoni bolalar ko'zi bilan ko'rishga intilgan. U dunyoni musiqiy dramatik obrazlar, ya'ni ba'zan qattiqqo'l pedagog, ba'zan qo'g'irchoqlar, ba'zan kichik molboqar va ba'zan o'yinchoq fillar obrazlarida ko'rishni va ularni musiqiy tovushlar yordamida ifodalash yo'lidan borgan.

Kompozitorning "O'yinchoqli quti" nomli fortepiano asarlari to'plami keyinchalik uning shu nomli balet yaratishiga sabab bo'ldiki, bu balet hozirgacha dunyo mamlakatlari teatrlarida qo'yilib kelinmoqda. Bu borada uning 1-jahon urushi davrida yaratgan "Qahramonona alla", "G'arib bolalar tavalludi kuni" nomli (1913-1914) musiqiy asarlari ham vatanparvarlik va qahramonlik ruhida yaratilgan va diqqatga sazovordir.

M.Ravel (1875-1937) fransuz kompozitorlari ichida etakchilaridan biri bo'lib, fransuz impressionizmi asoschilaridan, Debyussidan so'ng uni davom ettirganlardan biridir. Uning "Mening g'oz onam" nomli fortepiano syuitasi besh qismli bo'lib 1-qism "Pavana Spyashey krasavisti", 2-qism "Malchik i palchik", 3-qism "Durnushka, starista pagod", 4-qism "Razgovor krasavisti i CHudovisha", 5-qism "Volshebniy sad" deb nomlanadi. Bu asarda Ravel asosan ertak personallari obrazlariga murojaat qilgan bo'lib, har bir qism tugallangan voqea xodisa yoki mavzu to'g'risida taassavur uyg'otadi. 1925-yil Ravel o'zining "Mo'jiza va bola" nomli opera baletini yozdi.

Maktab repertuariga Debyussining "Naktyurn" nomli simfonik asarlar majmuasidan "Bayramona" pesasi Ravelning "Ispan rapsodiyalari", XX-asr mashhur simfoniyasi "Balero" dan, "Xabanerlar" deb nomlangan asari kiritilgan.

2) Venger kompozitorlaridan B.Bartok (1881-1945) fortepianochi, pedagog, nazariyotchi va xalq musiqasi sohasida tadqiqot olib boruvchi olim edi. U 1905-yildayoq "Kichik slavak uchun" nomli besh qismli to'plam hamda 27 ta ikki va uch ovozli bolalar xori uchun jo'rsiz qo'shiq yozgan edi. 1926-1937-yillar davomida esa "Mikrokosmos" nomli o'z ichiga 150 ga yaqin fortepiano pesalarini olgan to'plam yaratdi. Forteplano cholg'usini o'rganuvchilar uchun bu asarlar juda qulay va texnik hamda melodik nyuanslarga boy hisoblanadi. Yana bir venger kompozitori Zoltan Kodaly (1882-1967) olim, folklor yig'uvchi va pedagog sifatida faoliyat ko'rsatishidan tashqari xalq folklori asosida bolalar va kattalar uchun ko'plab asarlar yaratdi. Ular ichida ko'pchiligini xalq folklori asosida yaratilgan xor asarlari, bolalar qo'shiqlari tashkil qilib, bolalar bog'chasidan to oliy ta'limgacha bo'lgan murakkablikdadir. Uning 1943-yilda yaratgan maktab o'quvchilari uchun qo'shiqlar to'plami asari fikrimiz dalili bo'lib, bu asarlar dunyo bo'ylab ta'lim jarayoniga tadbiq qilinmoqda.

3) XX-asr nemis kompozitorlari ichida ko'zga ko'ringanlaridan biri kompozitor, dirijyor va musiqa nazariyotchisi R.Xindemit (1895-1963) bo'lib, u o'z davri musiqa hayotida I.S.Baxning izdoshi sifatida yorqin iz qoldirdi. U o'zidan boy ijodiy meros qoldirgan bo'lib, deyarli barcha musiqiy janrlarda ijod qildi. R.Xindemitning bolalar uchun yozgan "Biz shahar quramiz" (1930) operasi juda mashhur edi. U 1953-yil Bryussel shahrida o'tkazilgan xalqaro musiqa tarbiyasi uyushmasining kengashida taniqli kompozitor, dirijyor sifatida qatnashdi.

Kore Orf (1895-1982) esa musiqali dramatik asarlar yaratish bo'yicha nom chiqargan va teatr sohasining mohir ustasi edi. Uning yozgan musiqiy asarlari

o'zining oddiyligi, yoqimlilik va jozibadorligi bilan bolalar va kattalarni o'ziga tortar edi. K.Orf asosan musiqiy tarbiya sohasida ish olib borib, bu borada maxsus tarbiya sistemasi, ya'ni tizimini yarata oldi. U 1935-yillardan boshlab gimnastika va raqs maktabida ish olib bordi va uning ijodi ko'proq musiqa bilan harakat janrlarida edi. U o'z shogirdi kompozitor va pedagog G.Ketman bilan hamkorlikda besh tomlik "Bolalar uchun musiqa" yoki "SHulverk" nomli asar yozdi, so'ngra unga qo'shimcha ravishda "YOshlar uchun musiqa" nomli to'plam yaratdi. Bu to'plamlarda xor asarlari, qo'shiqlar, cholg'u musiqalari, ritmo-melodik mashqlar va xatto dramatik musiqiy asarlar ham mavjud, shuningdek ularda orkestr uchun musiqa asarlari, cholg'u va orkestr uchun konstertlar ham mavjud.

4) Ingliz kompozitorlari orasida bolalar va yoshlar uchun salmoqli ijod qilganlar ichida kompozitor B.Bretten (1913-1976) ning nomi mashhurdir. U Genri Pyorseldan so'ng birinchi bo'lib, ingliz musiqa madaniyatini dunyo musiqasiga (deyarli 300 yillik tanaffusdan so'ng) ko'tarildi. U bolalarning tembri va diapozoni bilan tanishtirish maqsadida turli cholg'ular solasi butirib ko'rsatilgan simfonik asarlar yaratdi. Bundan tashqari uning "Kichik trubachi", "Keling opera qo'yamiz", "Naev Kovchag", "Vint aylanishi" nomli bolalar uchun yozgan operalari mashhurdir. SHuningdek, uning "CHudesniy mir muziki" nomli kitobi bo'lib, unda bolalarni musiqaning mo'jizaviy olamiga olib kiruvchi turli janrlardagi musiqa asarlari mavjud.

5) XX-asrda bolalar uchun salmoqli ijod qilgan G'arb kompozitorlaridan biri Braziliyalik V.Lobosdir (1887-1959). Uning ijodida 1000 dan ortiq musiqiy asar bo'lib, turli janrlar: operalar, baletlar, simfoniylar, kamer, musiqasi, xorlar va boshqa janrlardagi asarlardan iborat. Boshqa kompozitorlar kabi u ham o'z ijodiy faoliyatida xalq folklor musiqasiga tayangan. SHuning uchun uning asarlarida Braziliya xalqi milliy ruhi ufurib turadi. Uning bolalar uchun yozgan uch qismli "Mir rebenka" (Bolalar olami) nomli syuitasi, o'z ichiga ko'plab janrdagi cholg'u va vokal musiqasini jomlagan "Destkiy albom" i, mashhurdir. Bu albomdan joy olgan "Samba", "Boltacha", "Hindular o'yini" nomli asarlar ayniqsa bolalarni qiziqtiradi.

8-mavzu: XX-asr rus va SNG mamlakatlari kompozitorlarining bolalar musiqa ijodi

REJA:

1. XX-asr rus kompozitorlari:
 - a) S.Prokof'evning bolalar uchun ijodi.
 - b) D.SHostakovichning bolalar uchun ijodi.
 - v) D.B.Kobalevskiy ijodi.
2. SNG davlatlari kompozitorlarining bolalar uchun ijodi rivojlanishi. Arman kompozitori A.Xachaturyan ijodi.
3. SNG davlatlari kompozitorlari asarlarining maktab repertuariga kiritilishi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

XX-asr tarixiy voqealarining musiqa ijodiyotida aks etishi. Bolalar uchun yozilgan musiqiy asarlar salmog'ining oshib borishi. Musiqada internasionallikning aks etishi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. S.Prokof'evning bolalar uchun ijodini izohlang.
2. D.SHostakovskiyning ijodini izohlang.
3. D.B.Kobolevskiy ijodi va pedagogik faoliyati.
4. SNG kompozitorlari XX-asrda bolalar uchun qanday ijod qildi?
5. A.Xochaturyanning bolalar uchun ijodini izohlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. L.G.Danko. "S.Prokof'ev". –M.: 1983-yil.
2. Enstiklopedicheskiy slovar yunogo muzikanta.
3. Programma. Muzikalnaya kultura. –T.: 2000-god.

1) Musiqa o'z mohiyatiga ko'ra ham tarbiya, ham targ'ibot vositasi hisoblanadi. XX-asr yurtimizda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar, jumladan jahon urushlari, revolyustiyalar, grajdanlar urushlari va tinch rivojlanish hamda yirik mamlakatning mustaqil davlatlarga bo'linishi tarixiy jarayonlari avvalo xalq musiqa ijodiyotida, qolaversa kompozitorlar ijodida ham o'z aksini topib berdi. Bunday asarlarda yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, urushga vayronagarchilikka va dushmanga nisbatan nafrat ruhi hukmron bo'lib, o'z navbatida yuksak tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

XX-asr SNG davlatlarida yashab bolalar uchun ijod qilgan kompozitorlar juda ko'pchilik bo'lib, ularning barchasining ijodi to'g'risida batafsil ma'lumot berish uchun ma'ruzamiz ko'lamini torik qiladi. Ularning ichidan asosiylari to'g'risida fikr yuritamiz.

S.S.Prokof'ev (1891-1953) dunyo tan olgan taniqli rus kompozitori bo'lib, uning asarlari oddiy, sodda va dilga yaqinligi bilan tinglovchi qalbini tezda zabt etdi. U bolalar va o'smirlar uchun boy musiqa merosi qoldirdi.

Uning mashhur ertakchi X.K.Andersen ertaklariga (1914) yozgan "Tannoz o'rdakcha" nomli fortepiano va ovoz uchun yozilgan asarlar to'plami, 30-yillarda yaratgan "Romeo va Juletta" baleti, "Aleksandr Nevskiy" nomli kontatasi, 35-yillarda "Bolalar musiqasi" nomli fortepiano asarlari to'plami, 36-yillarda "Petya i volk" (Petya va bo'ri) nomli simfonik ertak asari, rus shoiri S.YA.Marshak bilan hamkorlikda "Qish gulhani" syuitasi, "Tinchlik qo'riqchilari" nomli simfonik orkestr uchun oratoriya, 44-yillarda "Zolushka" (SHarl Perro ertaklari asosida) ni yaratdi. U umrining oxiriga qadar ertaklardagi chuqur tarbiyaviy mazmunni o'z ijodi orqali yosh avlodga etkazib berishga intildi va o'zi ham bolalarga samimiy edi.

D.D.SHostokovich (1906-1975) XX-asr rus kompozitorlari ichida uning nomi ham mashhurdir. Uning yaratgan musiqiy asarlari aqlni shoshiradigan darajada jozibali, xalqchil va o'ziga xos yangi yo'nalishdadir. Urush arafasida "Bolalar musiqali radiojurnali" da redaktor edi. Bu radiojurnalda ko'plab

kompozitor va musiqachilarning chiqishi uyushtirilar edi. Bu jurnalda uning bolalar uchun yozgan “Qo’g’irchoqlar raqsi” nomli fortepiano pesalari tez-tez yangrab turar edi. So’ngra uning “Bolalar daftari” qo’shiqlar to’plami, fortepiano dueti ham bolalar e’tiboriga havola qilindi. Ko’plab tinglovchi va ijrochi bolalar uning “SHarmanka”, “Marsh”, “Qo’g’irchoqlar raqsi”, “Vals-hazil” kabi musiqalari, “Vatan tinglaydi-Vatan biladi” nomli xor asarlari, birinchi kosmonavt YUriy Gagarin sharafiga yozilgan “Pesnya o vstrechnom”, “Xoroshiy den” kabi qo’shiqlarini sevib tinglaydilar va ishtiyoq bilan ijro etadilar.

2) XX-asr sobiq ittifoq kompotizorlari orasida bolalar uchun salmoqli ijod qilgan kompozitor Aram Xochaturyanning nomi yaqqol ko’zga tashlanadi. A.Xochaturyan (1903-1978) arman kompozitori bo’lib, uning ijodi boshqalardan jonliligi, temperamentliligi, shijoatliligi bilan ajralib turadi. A.Xochaturyanning boy musiqa ijodi orasida bolalar uchun yozilgan asarlar ham salmoqli o’rin egallaydi. Uning “Bolalar albomi” nomli fortepiano uchun pesalari to’plami (bir necha jildidan iborat), “Bolalar nimani orzu qiladi” nomli qo’shig’i, “Bugun hursandmiz”, “Do’stlik valsi” kabi asarlari bolalar tomonidan sevib tinglanadi va ijro etiladi. Bundan tashqari uning “Gayane” baletidagi allasi, “Maskarod” spektakli musiqalari ham bolalar repertuarlaridan joy olgan.

3) XX-asr rus kompozitorlari orasida Dmitriy Borisovich Kobalevskiyning ham alohida o’rni bor. Buyuk pedagog va kompozitor D.Kabalevskiy (1909-1987) XX-asr musiqiy ta’lim sohasida o’chmas iz qoldirdi. U o’zining yangi ish tajribalari bilan musiqiy ta’limni isloh qildi. Kompozitor sifatida uning 30 ta bolalar pesalari fortepiano uchun, shuningdek, O.Vesotskiy, A.P.Prishelst, A.Bartoshelrlariga bolalar uchun ko’plab qo’shiqlar yozdi. Uning “Maktabga”, “Artek valsi”, “Do’stlik lageri”, “Petya haqida”, “Qush uyasi”, “Maktab haqida qo’shiq”, “Maktab davrim” kabi qo’shiqlari har xil yoshdagi bolalar uchun yozilgan, shuningdek “Tegirmonchi bola va eshak” nomli komediyasi, “Tong, olam va bahor qo’shig’i” kontatasi (xor uchun) 50-60-yillarda yozilgan fortepiano uchun uchta konsterti va boshqa ko’plab asarlari mavjud. Keyingi 70-80-yillarda u musiqiy targ’ibot ishlari va pedagogik faoliyat bilan band bo’ldi. U maktabda musiqa nomli jurnal tashkil qildi va musiqiy tarbiya haqida uchta kit va boshqalar haqida, bolalarga musiqa to’g’risida qanday hikoya qilinadi, go’zallik ezgulikni uyg’otadi, mening qadrdon do’stlarim nomli musiqiy tarbiya to’g’risida kitoblar yozdi.

4) XX-asr SNG davlatlari kompozitorlari orasida yana ko’plab kompozitorlarning nomi ma’lumdir. Ular o’z ijodlarini yashab turgan joyi, sharoiti va milliylik xususiyatiga ko’ra turli tillarda, turli milliy koloritlarda va turli tabiiy sharoitlarda ijod qildilar.

Ular orasida M.Krasev, Iordanskiy, T.Filippenko, T.Potopenko, Parstxaladze, A.Ostrovskiy, R.pauls va boshqalarning ham nomlari bor. SHuni aytish kerakki, bu kompozitorlar eng kichik yoshdagi bolalardan to balog’at yoshigacha bo’lgan o’smirlargacha bo’lgan yoshdagilar uchun turli janrlarda ijod qiladilar. Bu musiqiy asarlar garchi turli millatga xos, turli tillarda bo’lsada, bolalar uchun sevimli bo’lib qoladi.

SHuni aytilish kerakki XX-asr rus va SNG davlatlari kompozitorlari ijodi bo'lmish bolalar musiqa asarlari muvaffaqiyat bilan maktab repertuariga kiritildi va ular bolalarni har tomonlama garmonik tarbiyalashda o'z samarasini bermoqda.

9-mavzu: O'zbek bolalar musiqa folklori

REJA:

1. Xalq milliy an'analari rivojida bolalar musiqa folklorining ahamiyati.
2. O'zbek bolalar musiqa folklori (guruh, janr va formalari).
3. O'zbekistonda bolalar musiqali folklorini to'plash va o'rganish.
4. O'zbek kompozitorlari ijodida bolalar musiqa folklori.
5. Bolalar musiqa folklori maktab dasturida.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

O'zbek bolalar musiqa folklori ildizlari. Ularning davrlar osha bizgacha etib kelishi. Uni rivojlantirish uchun olib borilayotgan izlanishlari.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. YOsh avlod badiiy-estetik tarbiyasida bolalar musiqa folklorlarining rolini ko'rsating?
2. Bolalar musiqa folklori guruhlari, janrlari, formalari qanday bo'ladi?
3. O'zbekistonda bolalar musiqa folklorini to'plash va o'rganish holatini izohlang?
4. O'zbek kompozitorlarining o'z ijodida bolalar musiqa folkloriga murojaat qilishi boisini izohlang.
5. Bolalar musiqa folklori maktab dasturiga tadbqiq etilishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F.Karimov. O'zbek xalq musiqa merosi. –T.: 1978-yil.
2. R.Qodirov. Boshlang'ich maktabda ko'p ovozli kuylash. –T.: 1998-yil.
3. Salamonova. O'zbek musiqa tarixi. –T.: 1991-yil.
4. Dastur. Musiqa madaniyati. –T.: 1999-yil.

O'zbek xalq musiqa ijodiyoti tarixi ham xalqimiz tarixi kabi ko'hna va azaliydir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida xalq musiqa ijodiyoti tarixini o'rganish borasida keng ko'lamda izlanish va tadqiqotlar olib borilmoqd. Garchi sobiq tuzum davrida xalq madaniy merosi bo'lmish folklor va uning tarixini o'rganishda mavjud tuzum yo'l bermagan bo'lsada, mustaqilligimiz davrida bu ishga keng yo'l ochildi. Endilikda biz o'z qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash yo'lidan bormoqda ekanmiz, ishni avvalo tariximizni tiklashdan, shu jumladan musiqa madaniyatimizning ko'hna va boy merosini to'plash, ular orasidan esa bolalar musiqa folklorining tarixi ham hazinasi ham to'liq tiklanishiga erishishimiz kerak.

Bu to'g'rida prezidentimiz I.A.Karimovning ko'plab ma'ruzalari, suhbatlari hamda yozgan asarlarida qimmatli fikrlar bildirilgan. O'zbek xalq musiqa ijodiyoti qadimiy va xilma-xil janrlarga boy. SHu jumladan bolalar musiqasi tarixi ham

qadimiy bo'lib, u xalq musiqa ijodiyoti zahirida paydo bo'ldi va rivojlandi. Fikrimizning dalili sifatida Kaykovusning "Qobusnoma" asaridan quyidagi jumalarni keltiramiz: "... demak, musiqa ilmining ustodlar musiqa asboblari shunday tartib berganlarki, avvalo podshohlar majlis uchun husravona dostonlar tuzganlar. Undan so'ng vaznsiz bir og'ir yo'l tuzdilar, uni ikki musiqa bilan aytsa bo'ladi, bunga og'ir yo'l deb ot qo'ydilar. Bu yo'l keksalar va o'qigan odamlarning tabiatiga mos keladi. So'ngra ustodlar ko'rdilarkim xalqning hammasi keksa va jiddik kishilar emas. SHuning uchun yigitlarga moslab bir yo'l ishlab chiqdilar, ya'ni engilroq vaznli she'rdan so'ng xafif yo'lni chaldilar. Bundan qarilar va yigitlar ham bahramand bo'lsin, deb o'yladilar. So'ngra yosh bolalar va yoqimli tabiatli kishilar bebahra qoldilar. Bu qavm uchun taronani ishlab chiqdilar toki bu qavm ham bahra olsin deb chunki hamma vaznlar orasida taronadan yoqimli vazn yo'q"¹.

Biz yuqorida keltirgan misol professional musiqa taraqqiyoti jarayonida bolalar musiqasining shakllanishi tarixi ham ancha ko'hna hisoblanadi.

SHuni aytish kerakki, asrlar davomida bolalar musiqasi o'yin bilan, tabiat bilan, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq holda shakllanib kelgan. Ayniqsa ular ertak qahramonlari, tabiat xodisalari, birinchi ochilgan gul, qushlar (qaldirg'och, laylak, turna va hokazolar), mevalar, paxta, tong otishi yoki kun botishi, momoqaldiraq va turli o'yinchoqlar to'g'risida kuylangan kichik va sodda shakldagi musiqiy asarlar, bundan tashqari topishmoqlar, tez aytish, atishuv va boshqa shakllarda ijro etilgan.

Bolalar musiqa folklorini ikki xil deb tushunish lozim:

1. Aynan bolalarning o'zi ijro etadigan musiqiy asarlar.
2. Kattalarning bolalar to'g'risida ijro etadigan asarlar.

Birinchi guruhga bolalar ijro etadigan sanoq o'yinlari, topishmoqlar yoki topishmoqli o'yinli qo'shiqlar. Bunday o'yinlarda ko'proq so'zlarning she'riy tarzda ijro etilishi, kuy esa regitativ xarakterda bo'lishi kuzatiladi. Ular mehnat, yil kunlari, mavsumlar, sanalar, marosimlar, bayramlarga bag'ishlangan yoki oddiy ko'ngilochar holatda bo'lishi mumkin.

Bolalar qo'shiqlari qaysi xarakterda yoki qaysi janrda bo'lishidan qat'iy nazar, melodik jihatdan oddiy va sodda tuzilishi bilan ajralib turadi. SHuningdek, unda ishtirok etadigan she'riy yoki nasriy matn ham bolalarga xos tushunarli va ravon shaklda bo'lishi lozim. Bunga bolalar folklori namunalaridan "Olatoy", "Boychechak", "CHuchvara qaynaydi", "Zuv-zuv borag'ay" kabi qo'shiqlar, bundan tashqari "YO ramazon" kabi aytishuv shaklidagi qo'shiqlarni misol keltirishimiz mumkin.

SHuni aytish kerakki, O'rta Osiyo xalqlari boshdan kechirgan tarixiy jarayonlar, milliy istibdodlar, istelo va urushlar natijasida xalq musiqa ijodiyoti kabi bolalar musiqasi ham o'yinlari, qo'shiqlar bu jarayonlarda yo'qolib va unutilib ketgan. Bunday tarixiy xodisalar natijasida xalqning turmush sharoiti og'irlashgan. Bu esa bolalarning ham og'ir mehnatga jalb etilishi, o'yin va ko'ngil ochar tadbirlar o'tkazishlari uchun imkon bermagan. SHuning uchun bolalar musiqalari ham faqatgina milliy bayramlar, to'y-tantanalari yoki diniy marosimlar bilan ko'proq bog'liq holda rivojlangan.

Bolalar musiqasi uchun yoddan kuylash, bir-biridan eshitib o'rganish, kundalik turmush tarzining o'xshashligi (bolalarning bir xil muhit yoki sharoitda o'sganligi), ichdan to'qib ketish kabi ijodiy ijroga xosdir. SHuning uchun O'zbekistonning turli mahalliy hududlari bolalar musiqasi bir-biridan farq qiladi. Masalan: Farg'ona vodiysi bolalar musiqa folklori Qashqadaryo-Surxon vodiysi yoki Samarqand-Buxoro yoxud Xorazm bolalar musiqa folkloridan o'z shevasi, mahalliy ijro uslublari bilan farq qiladi.

Bolalar musiqa asarlari tuzilishini quyidagicha ta'riflash mumkin: 1. $A_1, A_1, A \dots$ – Bir mavzuning aynan o'zgarmagan holda takrorlanishi.

2. $A_1, A^1, A^1 \dots$ – Melodiya bir xilligi saqlangan holda so'zlar o'zgarishi yoki melodiyaning qisman o'zgarishi.

3. $AV, AV^1, AV^2 \dots$ – Melodiya naqorat bilan ijro etilishi melodiya teksti o'zgarmagan holda naqorat o'zgarishi va hokazo.

Ikkinchi guruhga kattalarning bolalar uchun ijrosiga mansub bo'lib, bu guruhda kattalarning bolalarga bo'lgan tuyg'ulari, orzu umidlari, o'git va nasihatlar qo'shiq yoki qo'shiqsimon ohanglar turzida ifoda etiladi.

Bunday qo'shiqlar jumlasiga allani, lirik qo'shiqlar hazil tarzida ijro etiladigan qo'shiqlar va doston qo'shiqlarining ba'zilarini kiritish mumkin.

O'zbekistonning ba'zi hududlarida bolalarga ertak va rivoyatlarni she'riy ohanglarda o'qib yoki aytib berish ya'ni "G'azali matal" deb ataluvchi ijrosi mavjud. Qadimda ertaklar, matallar, rivoyatlar va xatto dostonlar bolalarga mana shunday ma'lum ohangga solinib, o'qib berilgan yoki yoddan aytib berilgan. Mana shu tarzda xalqimizning "YO'riltosh", "Kun tug'mish", "Zumrad va Qimmat", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "To'xir va Zuxra" kabi ko'plab ertaklar va dostonlar kuylanib kelingan.

O'tgan asrning 30-yillariga kelib xalq musiqa me'rosi kabi bolalar musiqa folklorini notaga va garomplastinkalarga yozib olish yo'lga qo'yildi va ko'plab bolalar qo'shiqlari to'plamlari nashr qilindi. Bunday to'plamlarning birinchisi kompozitor I.Akbarovning "30 ashula" to'plami edi. SHuningdek, ko'plab bolalar musiqasi folklori YU.Rajabiyning "O'zbek xalq musiqasi" nomli ko'p jildli to'plamiga kiritildi. Ular orasida "Bahor keldi", "Binafsha", "Boychechak", "Hey lola", "Qish keldi", "CHamanda gul", "Laylak keldi", "Quyong", "Qichqir qo'rozim", "Sichqon", mehnat qo'shiqlaridan "Paxta teradi", "Paxta terimi", "Bu bog'da olisha", "Halinchak", "Dangasa", CHori-chambar, "CHitti gul" va boshqa ko'plab mavzularidagi qo'shiqlar kiritilgan.

XX-asr o'rtalari va 2-yarimida o'zbek kompozitorlari bolalar uchun samarali ijod qildilar. Ular orasida G'.Qodirov, I.Akbarov, F.Nazarov va boshqalarning bolalar uchun yozgan ko'plab qo'shiq, raqs kuylari va dramatik asarlari borki, bular o'zbek bolalar musiqasi xazinasining asosiy qismini tashkil qiladi.

10-mavzu: O'zbekistonda bolalar musiqasi taraqqiyoti tarixi

REJA:

1. O'zbek kompozitorlari ijodida bolalar musiqasi paydo bo'lishi.
2. 50-60-yillar bolalar musiqasi.
3. 70-80-90-yillar bolalar musiqasi.
4. O'zbek kompozitorlari ijodining maktab dasturiga kiritilishi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

XX-asr o'zbek kompozitorlarining bolalar uchun yozgan qo'shiqlari, cholg'u kuylari va dramatik sahna asarlari hamda ularning maktab o'quv dasturiga kiritilishi.

MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. O'zbekiston kompozitorlari bolalar musiqa ijodi asosiy tamoyillarini izohlang.
2. XX-asr 30-40-yillarida bolalar musiqa ijodiyoti borasida qilingan ishlarni sharhlang.
3. O'zbekistonda 50-60-yillar bolalar musiqa ijodi sohasida qanday ishlar qilindi.
4. 70-80-90-yillarda bolalar uchun yaratilgan musiqiy asarlar va ularning barkamol avlod tarbiyasidagi roli.
5. XX-asr bolalar qo'shiqchiligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. T.Solomonova. O'zbek musiqa tarixi. –T.: 1984-yil.
2. H.Nurmatov. Maktabda musiqa. –T.: 1992-yil.
3. Dastur. Maktabda musiqiy estetik tarbiya. –T.: 1993-yil.
4. Darslik. 1-7-sinf.
5. Dastur. Musiqaviy madaniyat. –T.: 1999-yil.

O'zbekistonda kompozitorlik ijodiyoti XX-asrdan boshlangan desak xato bo'lmaydi. Ilk bora nota orqali kuylar, qo'shiqlar yozish shoir va bastakor H.H.Nayoziyga dahldor bo'lib, u rus tuzem maktabida ta'lim olganligi yaratgan asarlarini nota yozuvida ifodalash uchun asos bo'lgan edi. Undan so'ng bu ishni keksa avlod vakillari bo'lmish Yu.Rajabiy, I.Akbarov, T.Sodiqov, S.YUdakov, M.Leviev, M.Burhonov va boshqalar, shu jumladan B.Zeydman, B.Glier, B.Nadijdin, A.Berlin, E.Shvarst kabi rus kompozitorlari davom ettirdilar.

O'zbekiston Ruspublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi qonunlari hamda Prezidentimizning asarlari v qator ma'ruzalarida yosh avlodni ma'naviy-estetik, milliy an'ana masala bo'lib turganligi aytib o'tildi. SHunday ekan barcha tarbiya turlari, jumladan, musiqiy tarbiya ham mana shu vazifani muvaffaqiyatli hal etish uchun xizmat qilmog'i kerak.

SHuni aytish kerakki, sobiq tuzum davrida musiqa madaniyatimizning barcha sohalari kabi bolalar musiqa ijodiyoti ham o'ta mafkuraviy asosda qurilgan, ya'ni komunistik ideal uchun xizmat qilgan edi. Dastlab I.V.Stalin shaxsini

ulug'lash, V.I.Lenin shaxsini, kompartiya, rus xalqi, shurolar tuzumi mafkuralarini ulug'lash yo'lida ko'plab bolalar qo'shiqlari, dramatik sahna asarlari yaratilgan bo'lsa 50-60-yillarda bu an'ana yanada kuchaydi. Xatto 70-80-yillarda ham u aslo susaygan emas. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng jamiyatimiz mafkurasi o'zgardi. Dastlab milliy istiqlol g'oyasi va bosh maqsadimiz bo'lgan rivojlangan demokratik huquqiy jamiyat qurish vazifasi oldimizga qo'yildi.

Endilikda biz mana shu vazifani bajarish uchun sobit qadam bilan harakat qilmog'imiz bunday jamiyatni kelajakda quruvchi barkamol avlod, ya'ni har tomonlama etuk komil insonni tarbiyalab etishtirishimiz lozim. Buning uchun barcha tarbiya turlarini, jumladan musiqiy tarbiyani ham mana shu xayrli ishni muvaffaqiyatli hal qilish yo'liga qaratmog'imiz lozim.

XX-asr bolalar musiqasi taraqqiyotiga nazar tashlasak avvalo bu asr haqiqatan ham jadal rivojlanish asri bo'lib, tariximizda qoldi. Bo'lib o'tgan to's-to'polonlar, ya'ni inqilob grajdanlar urushi, bosmachilik, paranji tashlash, kollektivlashtirish, quloqlarni tugatish, jahon urushiga qaramasdan chinakkam yuqori darajada rivojlanishga erishdik. Avvalo mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil bo'lishi (1924-yil), O'zbekiston maorif komissarligi tashkil bo'lishi, umumxalqni savodli qilish uchun maktablar ochilishi, shu jumladan musiqa maktablari, uyushmalari, to'garaklar, ansamblarning faoliyat ko'rsatishi o'z samarasini bera boshladi.

30-40-yillarda E.Romanovskaya, I.Akbarov va YU.Rajabiylarning xalq musiqa ijodiyoti bilan birga bolalar musiqiy folklorini to'plash va nashr etish borasida qilgan ishlari tahsinga sazovor bo'ldi. Qolaversa, shu yillarda I.Akbarov tomonidan bolalar folklor asarlarini to'plash va ularni qayta ishlashi natijasida chop etilgan "30 ashula" asari (1936-yil), B.Nadejdinning "YOsh bolalar" (1942-yil), I.Akbarovning "Bolalar ashulasi" (1942-yil) kabi to'plamlari musiqa asarlari yaratishi va chop etishi bu borada salmoqli ish bo'ldi. Garchi bu to'plamga kiritilgan musiqiy asarlar mafkuraviy xarakterda bo'lsa-da, baribir bolalikni, vatanni, ota-onani, insonparvarlikni, do'stlikni va birodarlikni ulug'lash uchun xizmat qilar edi. SHuningdek, dastlabki bolalar uchun fortepiano pesalarining yaratilishi ham mana shu davrga to'g'ri keladi.

O'zbekiston kompozitorlarining bolalar uchun qilgan ijodlari ayniqsa, 60-70-80-yillarda gullab yashnadi desak xato bo'lmaydi. O'zbek kompozitorlaridan G'.Qodirov, M.Nasimov, D.Zokirov, S.YUdakov, SH.Ramazonov, F.Nazarov, A.Muhammedov va boshqalar, rus kompozitorlaridan B.Tenko, G.Mushel, S.Varelos va boshqalar bolalar uchun ko'plab musiqiy asarlar ijod qildilar. Ular orasida bolalar qo'shiqlari. Romanslar, fortepiano va boshqa cholg'ular uchun kuylar, xor asarlari, orkestr musiqalari, ko'p qismli asarlar, dramatik sahna asarlari operalar bor edi. Bunga misol qilib G'.Qodirovning "Maktabjon-oftobjon" (1974-yil), "O'qituvchimiz" D.Zokirovning "CHin yoshligim" (1978-yil), F.Nazarovning "Vatan bizning onamiz" (1975-yil) kabi qismli syuitalari X.Izomovning "Dilbar", "CHamanda gul", "Xalq mavzusida", "Ona" kabi fortepiano pesalari, Forteplano darsligi, I.Akbarovning fortepiano uchun minnatyuralari, "Oyoq uchida o'yin", "SHodiyona" pesalari, V.Xaet tomonidan yozilgan "Etish keygan mushuk",

S.Boboevning “YOriltosh”, S.Varelasning “Olovuddinining sehrli chirog’i” kabi operalarini ko’rsatishimiz mumkin.

70-yillarning so’ngida o’zbek kompozitorlari tarkibiga yana bir yangi avlod vakillari kelib qo’shildilar. Ular N.Norxo’jaev, A.Mansurov, D.Omonullaeva, SH.YOrmatov, X.Abdullaev, K.Kenjaev va boshqalar edi. Ular tomonidan bolalar uchun ko’plab musiqa asarlari yaratildiki, bu o’z navbatida o’zbek bolalar musiqasi xazinasiga o’lkan hissa bo’lib qo’shildi.

Bu yillarda bolalar uchun yozilgan vokal-xor syuitalari, kontatalar, qo’shiqlar, cholg’u asarlar yaratilishi davom etdi. Albatta bunday asarlarni yaratish jarayonida kompozitorlarimiz xalq musiqasiga, uning qadimdan saqlanib kelinayotgan ulkan xazinasiga bo’lmish folklor musiqa ijodiyotiga tayanadilar.

YAratilgan vokal-xor asarlarining teatrlashtirilgan ko’rinishlari paydo bo’ldikim, bu bolalar musiqasi ijodiyotida yangilik edi. Bunga A.Mansurovning “Dangasa”, “Dakang xo’roz”, “Oq terakmi-ko’k terak” xor asarlari, N.Norxo’jaevning “Hafta” xor uchun akapella-kontatasi misol bo’la oladi. Bu janrda o’sha davrda kompozitorlar K.Kenjaev va SH.YOrmatovlar ham samarali ish olib bordilar. Mamlakatimizda har yili o’tkazilib turiladigan “Ilhom chashmalari”, “O’zbekiston vatanim manim” keyinchalik “Kelajak ovozi” va boshqa nomlardagi ko’rik-tanlovlar natijasida bolalar uchun ko’plab yangi qo’shiqlar, cholg’u kuylari yaratildi va ko’plab yosh talantli ijrochilar kashf etildi.

SHuni aytish kerakki, bu borada O’zbekiston radiosi va televideniesi, madaniyat, maorif va oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirliklarining hissalariga katta bo’ldi. Ayniqsa O’zbekiston televideniesi qoshida tashkil qilingan “Bulbulcha” bolalar xor jamoasining ijrosini respublika bolalari sabrsizlik bilan kutadigan bo’ldi.

70-90-yillarda o’zbek kompozitorlari bolalar uchun operettalar, teatr va kino musiqalari, har xil yoshdagi bolalar uchun eshittiruv va ko’rsatuvlar, radio va telespektakllar, multfilmlar uchun musiqa yozishga kirishdilar. Kompozitor E.Solixov “Oygul sovg’asi”, “Sehrli doira” nomli ertak-spektakl, N.Norxo’jaev “Tuyaqush-boyaqish” nomli spektakl yaratdi.

CHolg’u ijrochiligi sohasida ham ko’plab asarlar yaratildiki, bu asarlar O’zbekiston musiqa maktablarida bolalar o’rganishlari uchun qo’llanilmoqda va ularning repertuarlaridan joy olmoqda. Bunga N.Norxo’jaev va D.Omonullaevalarning “Replika”, “Topishmoqli aytishuv” pesalar to’plamlari va milliy cholg’u sozlari ijrosi uchun yaratilgan ko’plab asarlarni misol qilib ko’rsatishimiz mumkin.


SHuningdek, bu davrga kelib bolalar estrada qo’shiqchiligida ham jadal rivojlanish ko’zga tashlandi. YAratilgan har bir yangi asarning professionallik darajasi va tarbiyaviy xususiyati O’zbekiston bastakorlar uyushmasining kengashlarida muntazam muhokama qilib borildi.

Bu davrda, umumiy musiqiy madaniyat, xususan bolalar, musiqasining taraqqiyotiga madaniyati uylari, madaniyat saroylari, o’quvchilar saroylari, klublar, xalq ijodiyoti uylari, maktablar, musiqa maktablari, havaskorlik to’g’arklarining faoliyati ham o’zining munosib hissasini qo’shdi.

Bundan tashqari bu davr bolalar musiqasining taraqqiyotiga musiqiy ta'limga qo'yilgan talablar, ishlab chiqilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangi ko'rinishdagi darslik va boshqa metodik adabiyotlar, kadrlar sifatini oshirish uchun olib borilayotgan ishlar ham o'z samarasini ko'rsatdi. Musiqiy ta'lim sohasida ham ilmiy ishlar olib borildi va professorlar H.Nurmatov, D.Omonullaev, Q.Mamirov, Oyulbrogimov, F.Halilov va boshqa olimlar musiqiy ta'limni zamon talablari darajasiga ko'tarish uchun o'zlarining ilmiy izlanishlari, yozgan darsliklari va metodik qo'llanmalari hamda ilmiy maqolalari bilan munosib hissa qo'shdilar.

Tarqatma materiallar

Mustahkamlash uchun savollar



Талаб
даражасидаги
мукаммал чолғу
сози

Мукаммал
ансамбл


Ёқимли
оҳанг

Чолғучилар
бажарадиган
вазифалар


Техник
ижро

Чиройли
усул


Musiqqa darsi xususiyati.



Musiqa insonni estetik dunyoqarashini rivojlantiradi.



Mustahkamlash uchun savollar



Миллий маданиятимизда қўлланиладиган мусиқа
чолғуларини фойдаланиш ўринларига қараб шартли
равишда 2 гуруҳга - профессионал ижрочиликда
қўлланиладиган ва фольклор чолғулари турларига
ажратиш мумкин.



Қўшнай – сибизға деб номланадиган содда фольклор чолғусининг такомиллашган ва 2 донасини биргаликда қўшиб чалинадиган муסיқий чолғудир. Қўшнай тайёрланадиган қамишлар бир оз йўғонроқ ва узунроқ бўлади. Ҳар иккала қамиш бўлакларида худди сибизғадаги сингари тиллар очилади ва ҳар бир бўлакнинг узунлиги ва йўғонлиги бир хил бўлиши талаб қилинади.







Қашқар рубоби

асли келиб чиқиши Шарқий Туркистон (хозирги Хитойнинг Уйғур Автоном Округи)даги Қашқар деган жой номи билан боғлиқ бўлсада, ўзбек миллий чолғулари ичида энг кенг тарқалган ва оммалашган чолғулардан ҳисобланади.




Дутор — тожик тилида икки тор маъносини берадиган, энг севимли ва оммалашган ўзбек муסיқий чолғуларидан биридир. Дутор куйлари асосан биринчи торда ижро этилсада, иккинчи тор ўша куйга қўшилиб, доимий садо бериб туриши ушбу чолғуни бошқа чолғулардан ажратиб туради.



Танбур – ўзбек халқининг қадимий ва ижрочилик жиҳатидан мураккаб бўлган муסיқий чолғуларидан ҳисобланади. Ушбу чолғунинг муқаддам икки хил – “хуросон танбури” ва “бағдод танбури” турлари мавжуд бўлган.







**IJRO VA IFODA VOSITALARI, TOVUSH VA UNING SIFATI,
DAMLI CHOLG‘ULARDA TOVUSH HOSIL QILISH ASOSLARI VA
DINAMIK BELGILAR**

- Ijrochilik uslubiyatida «Ijro va ifoda vositalari» degan tushuncha mavjud
- bo‘lib, ijro va ifoda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq esa-da, ular ijod
- jarayonining turli tomonlarini aks ettiradi. Musiqiy **ifoda vositalar**iga tovush
- hosil qilish va uning akustik asoslari. musiqiy tovush, sozning tozaligi
- (intonatsiya), tovush tusi (tembr), nola (vibrato), usul (ritm), o‘lchov, sur‘at,
- agogika, artikulyatsiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.


Tovush haqida ma'lumot

- **Tovush** o'zi nima? Tovush fizik hodisa bo'lib, tarang tortilgan jism (sim, yassi plastinka va h.k.)ning tashqi ta'sir natijasida mexanik harakatga kelishi –
- tebranishi natijasida hosil bo'ladigan jarayondir. Tabiatda qulog'imiz
- ilg'aydigan turli xil tovushlar mavjud. Lekin ularning hammasini ham musiqiy
- tovush deb bo'lmaydi. Musiqiy tovush o'zining to'rt xossasi, ya'ni bir-biriga
- nisbatan baland pastligi, tusi (tembri), davomiyligi, ya'ni cho'zimi va kuchi
- bilan shovqinli tovushlardan farq qiladi. **Tovush balandligi** deganda inson
- qulog'i qabul qila oladigan tovushlar ko'zda tutiladi. Ularning eng past
- sekundiga 16 va balandi 4200 (chastota) tebranishli tovushlar bo'lib, undan
- past va yuqorisini odam qulog'i ilg'amaydi va maxsus apparatlar yordamida
- eshitish mumkin.

Damli cholg'ularda vibratoni asosan ikki turi qo'llaniladi:

- Damli cholg'ularda vibratoni asosan ikki turi qo'llaniladi:
- a) qorin mushaklari va diafragma yordamida qo'llaniladigan turi nafasni to'ldirish orqali amalga oshiriladi. Bunda tovush balandligi o'zgarmaydi va
- belgilangan parda zonasi doirasida nimchorak ton pastga va yuqoriga harakat
- qiladi. Bunday ijro fleyta, nay, goboy, surnay va fagot cholg'ularida juda
- samarali ko'rinishga ega;
- b) lab mushaklari yordamida qo'llaniladigan turi bir parda zonasi doirasida
- lab mushaklarini taranglashtirish va bo'shashtirish natijasida nimchorak ton
- pastga va yuqoriga harakatlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu uslub klarnet,
- saksofon, qo'shnay va bulomon cholg'usiga ham juda xosdir.


Orkestrning tarkibiy tuzilishi.



TURLI XILDAGI DAMLI CHOLG'ULARDA IJROCHI LABINING VAZIFASI

- Damli cholg'ularda tovush hosil qilishda ijrochi labining vazifasi va chakka
- mushaklarning ishi o'ta muhim rol o'ynaydi. Damli cholg'ular tovush hosil
- qilinishi jihatidan uch guruhga bo'linadi va ularda lab apparati turli vazifalarni
- bajaradi.
- Nay va fleytalarda (labial) ijrochi labining ichkaridan tiqilib kelgan nafas
- oqimini fleyta (nay) teshigi (labium)ga yo'naltiruvchi vazifasini bajaradigan
- bo'lsa, tilli-trostli cholg'ularda trost tebranishini pastki yoki ikkala lab bilan
- boshqarilib turiladi. O'ramasimon (воронкаобразный) mundshtukli yoki misli
- cholg'ularda esa lab o'ziga xos o'rin tutadi va qo'zg'atuvchi vazifasini bajaradi.
- Ijro davomida cholg'uchi labining ishini boshqarib turuvchi mushaklar
- mavjud bo'lib, ularning yig'indisiga va ijro holatiga tayyor bo'lishiga
- «ambushyur» deyiladi.

Damli cholg'ular guruhi



Qadimdan shu davrgacha xalq orasida quyidagi cholg'ular istifoda qilingan:

- **G'ajir-nay, cho'pon-nay** cholg'usi to'g'ri silindr shaklidagi ikki tomoni
- ochiq nay bo'lib, cho'l burgutining g'ovak suyagidan ishlanadi. Uzunligi 300
- mm. Barmoq bilan bosib chalinadigan 4 ta teshikchadan iborat. Diatonik
- tovushqatorga ega. U cho'ponlar amaliyotida ko'proq qo'llaniladi va lirik
- tarzdagi kichik kuylar ijro qilishga qulay.
- **Ishvalak** – turli qush va jonzotlar shaklida sapoldan yasaladi va har xil
- bo'yoqlar bilan bezatiladigan xushtaksimon cholg'u. Uning xushtak hosil
- qiladigan bitta teshigi va barmoq bilan bosiladigan ikkinchi teshikchasi mavjud.
- Ishvalak asosan bolalar o'yinchog'i sifatida qo'llaniladi.
- **Sibiziq** – (bizillovchi ma'nosida) 150 mm uzunlikdagi g'arov qamishdan
- yasalgan cholg'u. Uning bosh qismida tilcha kesib ochilgan, barmoq bilan
- bosiladigan uchta teshigi bor.

Yog'och va mis damli cholg'ular guruhi



Damli cholg'ularda vibratoni asosan ikki turi qo'llaniladi:

- Damli cholg'ularda vibratoni asosan ikki turi qo'llaniladi:
- a) qorin mushaklari va diafragma yordamida qo'llaniladigan turi nafasni to'ldirish orqali amalga oshiriladi. Bunda tovush balandligi o'zgarmaydi va belgilangan parda zonasi doirasida nimchorak ton pastga va yuqoriga harakat qiladi. Bunday ijro fleyta, nay, goboy, surnay va fagot cholg'ularida juda samarali ko'rinishga ega;
- b) lab mushaklari yordamida qo'llaniladigan turi bir parda zonasi doirasida lab mushaklarini taranglashtirish va bo'shashtirish natijasida nimchorak ton pastga va yuqoriga harakatlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu uslub klarnet, saksofon, qo'shnay va bulomon cholg'usiga ham juda xosdir.

Ud. Afrosiyob xarobalarida, ko'hna Naysa va Marv hududlarida, Ayritom va Dalvarzintepada arxeologik qazilmalar natijasida topilgan terrakota, friz va boshqa topilmalarda ud cholg'usining tasvirlari saqlanib qolganligi bu musiqiy cholg'uning qadimiy ekanligidan dalolat beradi



Do'mbira cholg'usi professional cholg'u ijrochiligida
qo'llanilmasada, xalqimizga tanish musiqa asbobidir.
Baxshilarning eng yaqin hamrohi, tinglovchi bilan muloqotda
eng yaqin yordamchisi bo'lgan do'mbira juda qadimiy
cholg'ulardan hisoblanadi



G'ijjak cholg'usi qadimdan ma'lum bo'lsada, turli nomlar bilan atalib kelgan. Masalan, ba'zi tarixiy asarlarda u "rebab" deb ataladi. Hozirda ham arablar uni rebab deyishadi



Qashqar rubobi asli kelib chiqishi SHarqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg'ur Avtonom Okrug)i)dagi Qashqar degan joy nomi bilan bog'liq bo'lsada, o'zbek milliy cholg'ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan **cholg'ulardan hisoblanadi**



AN'ANAVIY MUSIQA CHOLG'ULARI


- Biz yashab turgan hududimizda ishlatiladigan milliy musiqa cholg'ularining turlari nihoyatda ko'p. Agar ular nomma-nom sanab chiqilsa, 50 tadan ortiq ekanligining guvohi bo'lish mumkin. SHular ichidagi 18 nomdagi musiqiy cholg'u XX asrning 30- yillari oxiridan boshlab yangidan yaratilgan musiqiy cholg'ular hisoblanadi va ular asosan orkestr va ko'p ovozli ansambllarda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Torli cholg'ular

- Torli cholg'ular – ochiq tordan foydalaniladigan (chang, qonun) va torning ma'lum bo'lagini bosish orqali tovush balandligi o'zgartiriladigan (ruboblar, dutor, tanbur, g'ijjak va boshqa) cholg'ularga bo'linishi mumkin. Ammo torli cholg'ularda tovush hosil qilinishi sharoitiga ko'ra boshqacha tasniflanishi ham mumkin. Bunda ijro uslublariga ko'ra urma jarangli torli (chang), tirnama cholg'ular (dutor, do'mbira), mizrobli cholg'ular (qashqar rubobi, afg'on rubobi, tanbur, qonun), kamonli cholg'ular (qo'biz, g'ijjak, sato)ni sanab o'tish mumkin.

-

Муסיқашунос олимлар



Glossariy

Ashula – keng tarqalgan vocal musiqa janri.

Ashulachi – ashula keng ma'noda barcha janrlar ijrochisi

Ashulachilik – ashula aytish san'atini asosiy kasb qilib olgan san'atkor.

Bayot – Toshkent Farg'onada mashhur maqom yo'llaridagi ashula turkumi.

Balabon – qadimiy o'zbek xalq cholg'u asboblari.

Doirachi – doira chaluvchi ijro etuvchi

Doston – nasr yo nazmiy matnga asoslanib musiqa bilan aytiladigan ertak

Dostonchi – doston yo'llarini ijro qiluvchi baxshi.

Dugoh. Maqomi dugohi – (du – ikki, goh o'rin joy, ikki parda)

Dugoh Husayniy – Toshkent Farg'onada keng tarqalgan maqomsimon turkum.

Dunahr – Maqomlarning ma'lum bir qismining yuqori pardalarda qaytarilishi.

Saqila – Shashmaqomning mushkilot bo'limidagi kuylardan biri.

Tani maqom – Xorazmda har bir maqomning birinchi qismi.

Tanovvar – Toshkent va farg'ona vodisida keng tarqalgan raqs kuyi.

Ushshoq – XIII – XVII asrlarda O'rta Osiyo Ozarbayjon Xuroson xalqlari o'rtasida keng tarqalgan 12 – maqomning birinchisi.

Akkord (it. Accordo, fr. Accord - birdamlik)– turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo'shilib, yaxlit holda yangrashi. Akkord odatda tersiya intervali bo'yicha taqsimlanadigan tovushlardan hosil bo'ladi. To'rt tovushli akkord – septakkord, besh tovushli akkord – nonakkord, olti tovushli akkord – undesimakkord deyiladi.

Ansambl (fr. Ensemble - birgalikda)- 1. Vokal yoki cholg'u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi. 2. Bir to'da san'atkorlarning bir butun badiiy jamoa holda chiqishi. 3. U qadar katta bo'lmagan xonanda yoki sozandalar jamoasi uchun yaratilgan musiqa asari. Ijrochilar soniga qarab bu ansambllar turlicha ataladi. Ikki ijrochi – duet, uch ijrochi – trio yoki terset, to'rt ijrochi – kvartet, besh ijrochi – kvintet, olti ijrochi – sekstet, yetti ijrochi – septet, sakkiz ijrochi – oktet va h.k. Ba'zan ansambl so'zini orkestr yoki xor jamoasining kichraytirilgan turiga ham aytiladi.

Applikatura (nem. Applicatur - qo'ymoq, bosmoq) – musiqa cholg'u asboblari ijro qilganda barmoqlarni to'g'ri qo'yish va almashtirish tartibi. Bu tartibning notalarda kysatilishi ham applikatura deyiladi. Applikatura arab raqamlari bilan notalarning osti yoki ustiga qo'yiladi.

Diapazon (yun. Diapason – barcha (torlar) orqali)– xonandaning ovozi, cholg'u asbobining tovush majmi. Musiqiy matodagi eng pastki va eng yuqorigi tovush oralig'i.

Diatonika (yun. Diatonikos – bir tondan ikkinchi tonga o'tish) – ladning asosiy bosqichlari izchilligidan vujudga keladigan musiqiy tovushlar tizimi. Tabiiy mador, minor va o'rta asr ldlari uchun asos bo'lgan asosiy yetti pog'onadagi ton va yarim tonlar diatonikaga kiradi.

Diatonik gamma – laddagi asosiy tovushlarning birin-ketin izchilligi. To'liq diatonik gammada yettita tovush bo'ladi.

Dinamika (yun. Dinamikos - kuchli) – musiqiy tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi. Dinamika tovushni turlicha ifodalash, ya'ni bir yo'la qattiq yoki sekin, asta-sekin kuchaytirish yoki sekinlashtirish, ayrim tovushlarni alohida ta'kidlab eshittirish v.b.

bildiradi. Dinamikaning asosiy turlari: forte - qattiq, kuchli; piano – sekin; crescendo – tovushni asta-sekin kuchaytirish; diminuendo – tovushni asta-sekin pasaytirish.

Interval (lot. Intervallum – oraliq, masofa) – ikki musiqiy tovush o'rtasidagi oraliq. Bunda tovushlar bir vaqtda yangrasa garmonik interval, birin-ketin yangrasa – melodik interval deb ataladi. Asosiy intervallar – prima, sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava.

Lad – turg'un va noturg'un musiqiy tovush pog'onalarining o'zaro bog'liqligiga asoslangan tovushlar tizimi. Zamonaviy musiqada yetti pog'onali major va minor ladlari asosiy ladlar hisoblanadi.

Orkestr (yun. Orchestra - qadimgi yunon teatri sahnasi oldidagi maydoncha) - turli cholg'u asboblarda chalib, ijrochilarning ushbu guruhi uchun yozilgan musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi sozandalarning katta jamoasi. Cholg'u asboblarining tarkibiga ko'ra orkestrlarning turlari: simfonik – to'liq tarkibdan iborat, torli – kamonli cholg'ular, damli - yog'och va mis damli cholg'ular, shovqinli - urma-zarbli cholg'ular.

Partitura (it. partitura – bo'lingan, taqsimlangan) – ansambl, xor, orkestr uchun yozilgan ko'p ovozli musiqiy asarning nota yozuvi. Unda barcha ovozlarning partiyalari jamlangan. Partiturada partiyalarning taqsimlanib kelishi yuqoridan quyi tomon turdosh cholg'u asboblari bo'yicha keladi. O'z navbatida, bir turdagi cholg'ularning eng yuqori registrga mansubi yuqorida, qolganlari registri bo'yicha pastki satrlarda yoziladi.

Partiya (musiqada)– 1. Ansambl qatnashchilaridan birining nota yozuvi. 2. Sonata shaklining ekspozitsiyasida asosiy mavzular bosh partiya, yordamchi partiya, yakunlovchi partiya sifatida keladi.

Registr (lot. Registrum – ro'yxat, yozib, qo'yish) – musiqiy matoning o'rangini yuqori, o'rta va pastki qismlarga mansubligi bo'yicha ajratish.

Rekonstruksiya (lot. Re – «yangilanish» ma'nosini bildiruvchi so'z yasovchi qo'shimcha, va constructio - tuzilma) - qadimiy musiqiy cholg'ularni qayta tiklash. Ushbu atama zamonaviy musiqiy cholg'ushunoslikda xalq cholg'u asboblarini tiklash va orkestrga mansub turlari (pikkolo, alt, bas va b.)ni yaratish ma'nosida qo'llaniladi.

Soz – 1. Tovushlarning balandlik holati va munosabati. Cholg'u asboblaridagi soz ularning tovushqatori tuzilishi va baland-pastligini aniqlaydi. Orkestr va ansambllar sozi shu jamoadagi cholg'u asboblarning bir-biriga bo'lgan balandlik munosabatlariga ko'ra sozlanadi. 2. Torli cholg'u asbob.

Tembr (fr. tembre - qo'ng'iroq, ajratish belgisi) – tovush tusi, har bir musiqiy cholg'u yoki xonanda ovozinig o'ziga xos tovush xarakteri. Cholg'u asbobining tuzilishi va shakliga ko'ra uning temбри turlicha bo'ladi.

Temperasiya (lot. Temperatio – to'g'ri munosabatda, bir o'lchamda) – musiqiy pog'onalar oralig'idagi intervallar munosabatining tengligi. Oktava oralig'ining teng 12 yarim tonga bo'linishi bir tekis temperasiya bo'ladi.

Tovushqator – cholg'u asbobida chalinishi yoki kishi ovozida aytilishi mumkin bo'lgan tovushqator. U yuqori ko'tarilayotgan yoki quyi tushayotgan qator tovushlar tizmasida tuziladi.

Transpozisiya (lot. Transponere – joyini o'zgartmoq) – tovushlarni boshqa balandlikka ko'chirish. Transpozisiya turli sharoitda qilinadi: yozilgan musiqa asari xonanda ovoziga noqulay bo'lsa; bir cholg'u asbobdan ikkinchisiga ko'chirish zarurati bo'lsa; yozilgan notalar o'qish uchun noqulay bo'lsa. Mazkur hollarda musiqa asarini bir tonallikdan ikkinchi tonallikka transpozisiya qilinadi; bunda uning xarakteri, ritmi va boshqa unsurlari o'zgarmaydi.

Transpozitsiyalanuvchi cholg'ular – kuy ijro etilganida nota yozuvida yozilganiga ko'ra past yoki baland tovush bilan yangraydigan cholg'ular. Masalan, qashqar rubobi,

afg'on rubobi yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Nay pikkolo esa yangrashiga nisbatan bir oktava past yoziladi.

Unison (it. unisono – bir xil sado) – bir xil balandlikdagi ikki (yoki bir necha) tovushning bir vaqtda yangrashi.

Xromatizm (yun. Chroma -rang) – diatonik laddagi pog'onalarining yarim tondan o'zgarishi. Ular alterasiya belgilari – diyez yoki bemol bilan ko'rsatiladi. Xromatik yarim ton bir pog'onadagi ikki turli tovushdan tuziladi. Masalan, «do» va «do-diyez».

Xromatik gamma – kuyning yarim tonlar bo'yicha baland-pastga izchil harakati. To'liq xromatik gamma 12 tovush (yarim ton)dan iborat. Gammadagi xromatik va diatonik yarim tonlarni tartibli almashinib kelishi lad tuzilishi (major va minor) va harakat yo'nalishi (yuqorilanishi yoki pasayishi)ga bog'liq. Xromatik gamma diatonik gammadagi butun ton pog'onalarini ko'tarish yoki pasaytirish yo'li bilan to'ldiriladi.

Cholg'ushunoslik – bu cholg'ular haqidagi fan bo'lib, cholg'ularning sozlanishi va ulaning yasash usullarini o'rganadigan kurs hisoblanadi.

Innovasiya - (inglizcha innovatsion) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar – jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi – talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi

MO'IT - Musiqa o'qitishning innovasion texnologiyasi

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi-1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan huquqiy hujjat.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni-1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan huquqiy hujjat.

Shaxs–kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta'lim xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

Uzluksiz ta'lim-malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

Davlat va jamiyat-uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligi ta'minlaydi.

Didaktika-pedagogikaning ta'lim jarayonini umumiy qonuniyatlarini o'rgatuvchi qismi bo'lib, «didasko» – «o'qitish», «didachol»-o'rgatuvchi degan ma'nolarni bildiradi.

BKM – **bilim, ko'nikma, malaka** – talabalarning bilishi zarur bo'lgan faoliyatining mazmuni.

AFU – **aqliy faoliyat usullari** – usullarning qisqacha ta'rifi.

DTS (davlat ta'lim standarti)-ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi.

Ma'lumot- ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma hamda shakllangan dunyoqarashlar majmui.

Ta'lim tamoyillari-umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish hamda o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishning asosiy qonun qoidalariga yig'indisidir.

Texnologiya- bu bir ishda, mahorat va san'at qo'llaniladigan usullar yig'indisidan iborat.

Texnologik jadval- texnologik jarayonning shartli tasviri, uning alohida funksional yelementlariga bo'linishi va ular o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning belgilanishi.

Texnologik xarita- jarayonni bosqichma-bosqich usulda ifodalash, bunda maqbul bo'lgan vositalar ko'rsatiladi (bu odatda grafik shaklda ifodalanadi).

Konsepsiya – umumiy biror g'oya yoki biror – narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.

EHM tarmoqlari. Hozirgi vaqtda bilimlarning barcha sohalarida EHM yoki kompyuter (lokal yoki global) tarmoqlari keng tarqaldi.

Sivilizasiya – axborotni to'plash, tahlil qilish va undan foydalanish hamda atrof – muhit va o'zi haqida axborot yaratish uchun eng ko'p ma'lumot olishga qodir bo'lgan moddaning yuqori turg'un holatidir.

Modullik. O'quv kursiga bog'liq bo'lmagan holatda shaxsiy, hamda gruppaga talabiga javob beradigan o'quv rejasini amalga oshiradi.

O'qituvchilarning yangi vazifalari. Masofaviy o'qitish o'qituvchining vazifalarini kengaytiradi va yangilaydi. O'qitilayotgan kurslari doimo takomillashtirish, ijodiy faolligini yuqorilashtirish va malakasini, kiritilgan yangiliklar va innovasiyalarga mos bilim jarayonini muvofiqlashtirishi zarur.

O'qitish mazmuni. O'qitish jarayoni, usullari va tashkiliy tartibini amalga oshirilishi uning tarkibi bilan ifodalanadi.

O'qitish obekti. Masofaviy o'qitish ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchi ushbu usulda ta'lim oluvchilar obektlari bo'ladi.

O'qitish subektlari. Masofaviy o'qitish subektlari o'qituvchilar hisoblanadi. O'qituvchi ta'lim jarayonining yuqori samarasini ta'minlashda asosiy bo'g'indir. Masofaviy o'qitish o'qituvchi faoliyatining muhim ixtisosligida kompyutor terminini kiritish zarurligini keltirib chiqaradi. Bu - o'qituvchi maslahatchi, u fundamental informatika va telekommunikasiyalar asoslarini bilishi kerak. Uning bilimligini uzuvchi xarakterga yega bo'lishi kerak.

O'qitish usullari. Masofaviy tartib o'z ichiga 5 ta umumdidaktik o'qitish usullarini oladi: informasion-reseptiv, reproduktiv muammoviy ifoda yetish, yevristik va tadqiqot. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro xarakat pedagogik aktlarning butun to'plamlarini o'ziga qamrab oladi.

O'qitish usuli. O'qitish maqsadlariga yerishish uchug o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro harakati ta'siri meyorlar tizimi to'g'risida nazariy tasavvurlab beradigan didaktik turkumdir.

O'qitish mazmuni. Bu o'quv informasiyaning tarkibi, tuzilishi va ma'lumoti hamda masalalar, topshiriqlar va mashg'ulotlar to'plami, ular kasbiy malaka hamda idroklarini shakllantiradi, mehnat faoliyatining dastlabki tajribasini yig'ishga imkon beradi.

O'qitish vositalari. Masofaviy o'qitish ta'limi jarayonida an'anaviy ta'lim bilan birga innovasion o'qitish vositalaridan foydalaniladi. Ular

ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Boshlag'ich rubob darsligi. Q. Usmonov. T. O'qituvchi – 1995 yil.
2. O'zbek xalq milliy musiqa taronalari. Toshkent – 1995 yil.
3. Rubob darsligi. X. Nurmatov. Toshkent. O'qituvchi 1993 yil.
4. X. Nurmatov – qashqar rubobi T. 2003
5. O'zbekiston Respublikasi madaniyati ishlari vazirligi – Rubob navolari T. 1993 y.
6. Sh. Rahimov – Dutor Toshkent. G'.G'ulom nashriyoti. 2005 y.
7. X. Nurmatov qashqar rubobi taronalari T. G'.G'ulom nashriyoti 1989
8. X. Nurmatov «Rubob darsligi» o'qituvchi T. 1993
9. X. Nurmatov «O'zbek xalq musiqasi» O'qituvchi T. 1998
7. R. Xodjiev Dutorim sozim manim. O'zbekiston nashriyoti 2001 y.
8. Sh. Raximov. «Cholg'u ijrochiligi». «Dutor». «Fan» nashriyoti 2005 y
9. Boshlang'ich rubob darsligi. Q. Usmonov. T.: O'qituvchi – 1995 yil.
10. O'zbek xalq milliy musiqa taronalari. Toshkent – 1995 yil.

Elektron ta'lim resurslari va fanga mos saytlar

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-intranet.Ped
6. <http://www.childrensmusicworkshop.com/musictheory/index.html>
7. <http://www.teoria.com/en/tutorials/reading/index.php>
8. <http://www.8notes.com/theory>
9. http://www.musictechteacher.com/music_quizzes/music_quizzes.html
10. <http://www.gmajormusictheory.org>